

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI BO‘LIMI**

**PORSO SHAMSIYEV**  
**tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan**

**respublika ilmiy anjumani materiallari**

**2022-yil 27-aprel**

**I KITOB**

**“Adast poligraf”  
TOSHKENT -2022**

Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjuman materiallari to‘plami / – Toshkent. – 2022. – 85 b

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi tomonidan 2022-yil 27-aprel kuni o‘tkazilgan yirik matnshunos va manbashunos olim Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

#### **Tahrir hay’ati:**

Maqsud Asadov, f.f.d., bo‘lim mudiri  
Ibrohim Haqqulov, f.f.d., bosh ilmiy xodim  
Qodirjon Ergashev, f.f.n., katta ilmiy xodim  
Sayfiddin Rafiddinov, f.f.n., katta ilmiy xodim  
Burobiya Rajabova, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim  
Sirdaryoxon O‘tanova, f.f.n., katta ilmiy xodim  
Zulayho Rahmonova, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

#### **To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:**

Nasiba Jo‘raqulova  
Dilmurod Asqarov

# PORSO SHAMSIYEV HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

## MATNSHUNOSLIK PIRI

*Ibrohim HAQQUL,*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti bosh ilmiy xodimi, professor*

Yigirmanchi asr o‘zbek matnshunosligi va navoiyshunosligining benazir namoyandasi Porso Shamsiyev O‘rta Osiyoning eng qadimiy ilm va ma‘rifat markazlaridan bo‘lgan Buxoroi sharifda tug‘ilib voyaga yetgan. Bo‘lajak olimning yoshlikdan arab, fors, eski o‘zbek tillarini o‘rganishga qiziqishi uning Sharq mumtoz adabiyotining Hofiz, Sa‘diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil kabi san‘atkorlari asarlarini o‘qib-o‘rganishi va matnshunos bo‘lishiga yaqindan yordam bergan.

Porso Shamsiyev ko‘pni ko‘rgan, o‘tmishning turli-tuman voqea-hodisalariga guvoh bo‘lgan zukko va tamkintabiat inson edi. Darhaqiqat, Porso Shamsiyev buyuk yurtdoshlari Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniyga o‘xshab tirik bir tarix o‘laroq shakllangan. U dinni tarixdan, tasavvufni adabiyotdan kam bilmagan. 1925-yilda Porso Shamsiyevning Toshkentga kelishi uning taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. O‘ttizinchi yillarda nashr qilingan “Adabiyotdan ish kitobi”, “Adabiyot darsligi”, “O‘zbek tili darsligi” kitoblari bilanoq, u kelajagiga ishonch hosil eta olgandi. Ammo Porso Shamsiyevning yirik matnshunos sifatida voyaga etishishi bevosita Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining izchil tadqiqi bilan bog‘liqdir.

Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganib, mukammal bir matn yaratish bosh maqsadga aylangach, Porso Shamsiyev butun kuch-quvvati, iqtidorini “Xamsa” tadqiqiga bag‘ishlaydi. 40-yillarda boshlangan bu mashaqqatli ishning dastlabki natijasi “Sab‘ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzib, 1956-yilda uni nashr qildirish bo‘lgan bo‘lsa, 1963-yilda “Farhod va

Shirin” dostoni ilmiy matnining bosilib chiqishi mazkur ishning muvaffaqiyatli davomi edi. “Hayrat ul-abror” matni ustidagi mehnat va izlanishlar mana shundan keyin boshlangan. Bu asar mazmun-mohiyati bilan nomlari qayd etilgan har ikki dostonidan ham farqlanishi tufayli tayyorgarlik va mas’uliyat ham shunga yarasha amalga oshirilgan. Buni olimning quyidagi so‘zlaridan ham angalash qiyin emas: “Hayrat ul-abror” ulug‘ shoir Alisher Navoiy yaratgan badiiy asarlarning eng mukammali va klassik adabiyotimizning bebaho durdonasi, “Xamsa”ni tashkil etgan dostonlarning birinchisidir. “Hayrat ul-abror” o‘zining tuzilishi va ichki mundarijasida masalalarning qo‘yilishi e‘tibori bilan “Xamsa”dagi boshqa dostonlardan batamom farqlidir” (Shamsiyev P. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: 1986, – B. 16.).

Ayni shu o‘ziga xoslik va tafovutlar “Hayrat ul-abror”ning ilmiy-tanqidiy tekstini yaratishda to‘la-to‘kis hisobga olingan. Uni tuzishda Abdujamil kotib, Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan mo‘tabar qo‘lyozmalardan tashqari boshqa qo‘lyozmalardan ham istifoda etilgan. Bular: “XVI asr Toshkent qo‘lyozmasi, XIX asrning Leningrad qo‘lyozmasi. Leningraddagi minatyurali qo‘lyozma. Qozon universiteti qo‘lyozmasi” (O‘sha kitob, 19-bet). Qo‘lyozmalarning barchasiga ham tanqidiy qaralib, ulardagi farq, nuqson va kamchiliklar birma-bir ko‘rsatilib, zarur o‘rinlarda sharh berilgan. Porso Shamsiyev matnda ko‘zga tashlangan “hamma mayda-chuydalarni bet ostida qayd eta berish tekstologiya vazifalariga aloqasiz harakat”, deb hisoblagani bois tanqidiy matnda ilmiy apparatni ixchamlashtirish bilan birga kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan sahva va xatolarning ko‘p-ozligini va qo‘lyozmalarning sifat darajasini belgilash uchun tuzilgan qariyb qirq sahifalik maxsus jadvalda besh qo‘lyozmadagi xato va tushib qolgan so‘zlar birma-bir ko‘rsatilganki, buning igna bilan quduq qazishdan kam joyi yo‘q.

Ilm degani birinchi navbatda mustaqil tafakkur, ilm – olim shaxsiyatidagi qat’iyat va o‘ziga xoslik, ilm – tadqiq-u talqinda boshqalarga nasib etmagan yaratishdir. Bular Porso Shamsiyev faoliyatida havas qilarli zaylda ro‘yobga chiqqandir. Ustodning yana bir muhim fazilati haqida Porso Shamsiyevning

maqolalar to'plamiga yozilgan so'zboshida filologiya fanlari nomzodlari Suyima G'aniyeva va Tamila G'afurjonova shunday fikrlarni bayon etishgan: "Alisher Navoiy qo'lyozmalarining Ittifoqimiz fondlaridagi nusxalarini Porso Shamsiyev o'rganib chiqqan, ular orasida fanga noma'lum tavsiflanmagan, sharhlanmagan, ko'plab nodir nusxalarni topgan va ularning ilmiy-tavsifini bergan. Lekin tabiatan sensatsiyaga moyillikni yoqtirmagan Porso Shamsiyev bu kabi ishlarni olimning oddiy burchi deb qaraganligidan bu haqida ortiqcha shov-shuv ko'tarishga yo'l qo'ymas edi" (O'sha kitob, 7-bet). Ming afsuski, keyingi paytlarda matnshunoslik darg'asi iddaosi bilan maydonga chiqqan ba'zi olimlar sensatsiya va shov-shuv ko'tarishni, demakki, o'zini ko'rsatishni asosiy maqsadga aylantirib olishdi. Olimlik axloqi va faoliyatiga teskari bunaqa holatlarga barham berish uchun ham Porso Shamsiyev tajribalarini chuqur o'rganib, uning kamyob fazilatlarini sidqidildan o'zlashtirish zarur, deb o'ylaymiz.

Matnshunoslikni an'anaviy yo'nalishga muvofiqlashtirishning asosiy bir sharti ham mana shu.

O'zbek mumtoz adabiyoti bo'limiga Porso Shamsiyev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'afurov, Suyima G'aniyeva, Yoqubjon Is'hoqov kabi ustozlardan ilmiy-ijodiy, axloqiy-ma'naviy bir tajriba va tashabbus meros qolgan. Ilm-fanda hamma vaqt g'irromlik, har turli botiniy o'yinchiliklar bo'lgan va bo'ladi. ammo poydevori mustahkam, yo'nalishi bexato belgilangan ilm tarmog'iga Solih Mutalibov, Hodi Zarif, Porso Shamsiyev singari allomalarning ruhlari muhofizlik etib, uni hamisha tanazzuldan asrab turadi. Demak, yosh tadqiqotchilarning o'tmish olim va fozillarni xotirlab, mas'ullikni unutmastiklari soxta ilmdan saqlanishning asosiy choralaridandir.

Ma'lumki, adabiy matn ishi til, adabiyot, ilm va daqiq bir tadqiqotchilik mehnatidir. Undan siyosiy g'araz va g'animlik uchun foydalanish hech vaqt o'zini oqlamaydi. Shunga qaramasdan ayrim kimsalar qandaydir bir so'z, ibora yoki jumlani dastaklab dushman bilgan kishilardan o'ch olishni ko'zlashgan. Filologiya fanlari nomzodi Vahob Rahmonovning O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovga yo'llagan qoralov xatida shunday so'zlar aytilgan:

“Navoiy harbiy hujumlar paytida shohning o‘rni jang harakati markazi (qalbgoh)da deydi. “Hayrat ul-abror” noshiri Ibrohim Haqqul talqinida “kalbgoh”da – “itxona”da turibdi”. Keyin dostonidan mana bu bayt keltiriladi:

*Ne ajab o‘lsa ko‘ngul o‘rniga shoh,*

*Chunki erur shoh yeri kalbgoh.*

Birinchidan, baytda Ibrohim Haqqulning hech qanaqa talqini yo‘q. Ikkinchidan, doston “Hayrat ul-abror” tanqidiy matni asosida ustoz Abduqodir Hayitmetov bilan birga nashrga tayyorlangan. Uchinchidan, unga zukko navoiyshunos Yoqubjon Is‘hoqov mas‘ul muharrirlik qilgan. To‘rtinchidan, hech bir kimsa “q” harfining dumini tushirib qoldirib shohga yoki podshohlikka nafratini ifodalamaydi. Qolaversa, o‘zbek o‘quvchisi “kalbgoh” kalimasini, deyarli, bilmaydi. Xullas, ming bilag‘onlik qilingani bilan fitna va ig‘voni ilmga qorishtirib bo‘lmaydi, albatta.

Xulosa o‘rnida aytiladigan gap shuki, oz bo‘lsa-da, men Porso domlaning so‘zlarini eshitganman.

Bo‘limga ishlay boshlaganimdan keyin hamkasblardan domla to‘g‘risida shunchalik samimiy, bir-biridan maroqli fikr-mulohazalarni tinglaganmanki, mening tasavvurimda Porso Shamsiyev ilm ahlining porsosi, ma‘rifat va fazilat sohiblarining piri qiyofasida muhrlanib qoldi. Maqolalarida esa ustozning tug‘ma matnshunosligi, adabiy matn tarkibidagi ko‘pchilik ilg‘ayvermaydigan o‘rinlardan kutilmagan xulosalar chiqarishga mohirligi shundoq ko‘rinib turadi. Shuning uchun ham olimning “Navoiyning nasriy asarlari”, “Tuhfat us-salotin”, “Nishotiyning “Zaboni murg‘on” asarlari haqida” singari maqolalari hanuzgacha ilmiy qiymatini, deyarli, boy bermagan. Alisher Navoiyning Porso Shamsiyevday qalbi munavvar vorisi borligidan har qancha quvonsa, albatta, arziydi.

# PORSO SHAMSIYEV VA O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGI MUAMMOLARI

*Hamidulla BOLTABOYEV,*

*O‘zMU professori, filologiya fanlari doktori*

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Porso Shamsiyevning Alisher Navoiy ijodining matniy tadqiqatlari, o‘zbek matnshunosligiga domlaning qo‘shgan ilmiy hissasi yuzasidan fikrlar o‘rin olgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** matn, ilmiy meros, Navoiy, doston, tarkibiy qism, xamsanavislik, nashr, farq.

## **Аннотация**

Данная статья содержит комментарии к текстологическим исследованиям произведений Алишера Навои, проведенным Порсо Шамсиевым, и его научному вкладу в узбекское текстоведение.

**Ключевые слова и фразы:** текст, научное наследие, Навои, эпос, компонент, симпатия, публикация, отличие.

## **Annotation**

This article contains comments on Porso Shamsiyev's textual research of Alisher Navoi's works and his scientific contribution to Uzbek textual studies.

**Keywords and phrases:** text, scientific heritage, Navoi, epic, component, sympathy, publication, difference

O‘zbek mumtoz adabiyotining shakllanishida matnshunoslik va manbashunoslik ilmi va amaliyotining benazir o‘rni borligi ma’lum. Shunday ekan, o‘zbek adabiyotshunosligining ham bugungi taraqqiyot darajasiga erishishi bevosita matnshunoslik ilmining rivoji bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyev mamlakatimiz manbashunosligi va matnshunosligining takomilida o‘z

o‘rniga ega, navoiyshunos olimdir. XX asrning 20-yillaridan o‘zbek ilmiga kirib kelgan olim samarali ilmiy faoliyat olib bordi. 30-yillarda ta‘lim sohasida ishladi, o‘rta maktablar uchun ona tili va adabiyot fanlari bo‘yicha darslik-qo‘llanmalar yaratdi, Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish bo‘yicha tayyorgarlik yuzasidan keng ko‘lamda izlanishlar olib bordi.

Domlaning nomzodlik ishi Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni ilmiy tanqidiy matniga bag‘ishlangan, biroq dissertatsiya himoya qilishga uning universitet ta‘limi emas, balki madrasada o‘qiganligi tufayli izn berilmagan edi. Chunki domla Buxorodagi Eshoni Pir madrasasida 1913-1919-yillarda tahsil olgan va madrasada ta‘lim berish uchun ishga olib qolingan. Madrasada olgan bilimlari sho‘ro davri universitetlari ta‘limi tizimiga teng emas, deb topilgani uchun ruxsat berilmagani uchun domla sobiq ittifoq Oliy ta‘lim vaziriga xat bilan murojaat qilgan. Nihoyat nomzodlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilishga erishgan (1952). Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutida Ibodilla Odilov, Abdufattoh Rasulov, Abdulqodir Murodov, Yunusjon Hakimjonov, Abdulla Nosirov kabi madrasa tahsiliga ega xodimlar qatorida domla ham ish olib borgan. Olim darrov ilmiy muhitga tortilmagan, ularning o‘z qo‘li bilan yozilgan bir necha tarjimayi hollarida Porsoxon Shamsiddinxo‘jayev 1920-yil 25-noyabrdan Buxoro Sho‘rolar jumhuriyati Markaziy Xalq bankida birinchi darajali hisobchi yordamchisi ekanligi bo‘lib ishlagani, 1921-yil 3-yanvardan Qarshi viloyatidagi Markaziy Xalq bankiga Buxoro Sho‘rolar jumhuriyatining Markaziy Banki tomonidan daftardorlik vazifasiga tayinlangani, 1921-yil 29-sentabrdan esa Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati Markaziy Xalq bankinging bosh hisobchisi vazifasiga tayinlangani qayd etilgan.

Navoiy asarlari ustida qilingan matniy tadqiqotlar olib borgan, forsiy asarlarining tarjimalari bilan mashg‘ul bo‘lgani, Navoiy asarlari nashrlari haqida taqriz va risolalar yozgani, Navoiy asarlarining bibliografiyasini tuzgani ilm ahliga ma‘lum.

“Xamsa” Navoiy ijodining shoh asari bo‘lgani kabi xamsashunoslik ham navoiyshunoslik ilmining asosi sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar



akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida prof. Porso Shamsiyevning shaxsiy arxivi saqlanadi, muzey xodimlarining harakati tufayli olimning shaxsiy arxivining katalogi (2017) nashr qilingan. Uni diqqat bilan kuzatganimizda, Porso Shamsiyevning “Xamsa”sining ilk dostoni “Hayrat ul-abror” qo‘lyozmasi va fotonusxalarining bir nechasini qiyoslab, “Hayrat ul-abror” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzgani, uni arab yozuvidan o‘sha vaqtdagi joriy yozuv kirilga o‘g‘irgani, unga izohlar yozib, bir necha bor nashr etganining guvohi bo‘lamiz. Navoiy “Xamsa”sining ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin” asarining ham shunday tadqiq qilar ekan, uning nashriga so‘zboshi yozgani: “Doston tekstlari va uni nashr etish haqida”, bir necha nashrlardan o‘rin olgani, dostonidagi “tarixiy va lirik ismlar”, geografik nomlar ismlar ko‘rsatkichlari tayyorlagani ma‘lum. Shuningdek, bir hujjatda “Farhod va Shirin” dostonining qo‘lyozma nusxalari orasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib, uni nashrga tayyorlashda buni hisobga olganini ham bilamiz. Ma‘lumki, “Farhod va Shirin”ning nasriy bayoni 1930-yillarning oxirida G‘afur G‘ulom tomonidan amalga oshirilgan, biroq ayni nashr P.Shamsiyev tomonidan bir necha bor qayta tahrir qilinib, tuzatilganini ham manbalardan bilib olamiz. “Xamsa”ning 2-dostoni “Layli va Majnun” haqida domlaning tadqiqotlari mavjud bo‘lsa-da, uning nashri bilan bog‘liq harakatlar ustoz G‘ulom Karimovning nomzodlik dissertatsiyasi bo‘lganini unutmagan holda Porso Shamsiyev uni “Xamsa” tarkibida qayta tadqiq etib, dostonga izohlar yozgan, “Layli va Majnun” dostonining ilmiy-tanqidiy matniga doir turli qaydlar qilgan, dostonning P.Shamsiyev tomonidan tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni fotonusxasi arxivda saqlanadi. Buyuk beshlik tarkibida “Sab‘ai sayyor” dostonining alohida murakkab o‘rni bor, ehtimol, shuning uchundir bu doston tadqiqi bilan sanoqli olimlarga mashg‘ul bo‘lishgan. Ular orasida P.Shamsiyev ishlari yetakchi xarakterda bo‘lib, hozirga qadar dostonning yagona ilmiy-tanqidiy matni domla tomonidan amalga oshirilgan. Bu matn keyinchalik S. Hasanovning doktorlik dissertatsiyasiga va boshqa tadqiqotlarga asos vazifasini o‘tagan. Shuningdek, “Saddi Iskandariy” kabi buyuk bir asarning P.Shamsiyev tabdilida bizgacha yetib kelishi, unga izohlar yozilishi ishlari ham

domla tomonidan amalga oshirilgan. Taxminan 30 yildan ortiq davr ichida “Xamsa” matnlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari tufayli domla 1953-yildagina filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan, bu jarayonning murakkab kechgani haqida yuqorida bir oz ma’lumot berdik. Keyinroq domla yana bir necha murakkabliklar davridan o‘tib, “Alisher Navoiy “Xamsa”si dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tayyorlash prinsiplari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu murakkab jarayon haqida tasavvur olish uchun dissertatsiya avtoreferatini va himoyadagi dissertantning chiqish so‘zi bilan tanishishning o‘zi kifoya.

Porso Shamsiyev naqafat xamsashunos, balki tom ma’nodagi navoiyshunos ham edilar. Fikrimizning asosi uchun Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining P.Shamsiyev tomonidan ko‘chirilgan arab xatidagi matni, olimning 1966-yilda nashrga tayyorlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” nashriga asos bo‘lgan. Alisher Navoiyning “Arbaiyn” asarini o‘rganish barobarida Jomiy va boshqa mualliflarning ushbu mavzudagi asarlarini domla tarjima qilgan, hadis matnlari bilan solishtirgan va nihoyat, asarning o‘n besh, 20 va 10 jildlik asarlaridan o‘rin olishiga sabab bo‘lgan. Shu kabi fikrlarni “Mahbubu-l-qulub” nashri bilan bohliq holda bildirish mumkinn. Alisher Navoiyning “Holati Pahlavon Muhammad”, “Holati Sayyid Hasan Ardasher” kabi manoqiblari ham domlaning mehnati tufayli tabdil qilingan. Bu asarlarning asl nomlari “holot” emas, “manoqib” bo‘lgani, sho‘ro davri zug‘umi tufayli “manoqib” so‘zi tasavvuf shayxlari va tariqat yetakchilariga nisbatan qo‘llanilgani uchun uni “Holot” deb o‘zgartirishganini ham domlaning kuzatishlari orqali bilamiz. “Xamsat ul-mutaxayyiriyn” matni xususida so‘z yuritishdan avval P.Shamsiyevning Jomiy ijodi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarini, tarjima va tabdillarini alohida eslash lozim. 1968 yilda chop etilgan “Navoiy va Jomiy” to‘plami va albomining yaratilishida P.Shamsiyev mehnatlarini qadrlash lozim, “Mufradot” (“Risolai muammo”) asarining fors tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarining matni kabi ishlarning o‘ziyoq domla o‘z matniy tadqiqotlari bilan bugungi navoiyshunoslik ilmining poydevorlaridan birini qo‘yganini esga

olish mumkin. Navoiyning asarlari asosida Abdujamil kotib tomonidan jamlangan “Tuhfatu-s-salotin”, Xondamirning “Makorimu-l-axloq”, Husayniyning Navoiy ijodiga bag‘ishlangan “Risola”sining Navoiy davri, muhiti va salaflari xususida adabiyotshunosligimizni boyitgani ma’lum.

P.Shamsiyev hayoti va faoliyatini o‘rganganda uning navoiyshunos sifatidagi faoliyati boshqa faoliyat turlaridan ko‘ra yetakchilik mavqe‘iga ega ekanligini bilib olamiz. Lekin domla hali ilmga unchalik ma’lum bo‘lmagan G‘oyibiyning “Mubayyin ul-murid”, Hamdamiyning “Nasihatnoma”, Mute‘iyning “Hadisi arba’in”, Turobiyning masnaviy yo‘lidagi asari, eshonlar haqida xotiralardan iborat “Hilvati sufaho” asarining bosh qismi, “Podshohi Jimjima” qissasi, “Xiva tilining xususiyatlari”, “Xiva tilining lug‘aviy ma’nolari”, “Ba’zi o‘g‘uzcha va qipchoqcha so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari”, “Farg‘ona va Xivacha so‘zlarning qiyosiy lug‘ati”, “Masala kitobidagi so‘zlar” kabi tilshunoslikka; “Xorazm xonlig‘ining jaddi va ajdod-avlodlari”, “Nuzhat ul-qulub” asaridagi Xorazmga doir qismlar, “Fo‘stundo‘zluq usuli” kabi tarixga oid maqola va ilmiy qaydlar yozgani, ularning ayrimlarini nashrga tayyorlaganini ham bilib olamiz.

Men bu o‘rinda Porsoxon domla tomonidan amalga oshirilgan ishlarning hammasini qayd etib ulguranim yo‘q, biroq ko‘rsatilgan manbalarning o‘ziyoq domlaning sermashaqqat ilmiy yo‘li o‘zbek adabiyotshunosligi uchun qanchalar asqotarli bo‘lganini tushunish mumkin. Bu haqda yana qo‘shimcha ma’lumot olishni istaganlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida prof. Porso Shamsiyevning shaxsiy arxivi o‘rganishlarini, hech bo‘lmaganda, S.Hasanov va Y.Tursunov tomonidan amalga oshirilgan arxiv katalogini (Toshkent, MUMTOZ SO‘Z, 2017) kuzatishlarini tavsiya qilamiz.

## **PORSO SHAMSIYEV - ILMIIY-TANQIDIY MATN NAZARIYOTCHISI VA AMALIYOTCHISI**

*Nurboy Jabborov,  
filologiya fanlari doktori, professor,  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

### **Annotatsiya**

Maqolada matnshunos olim Porso Shamsiyevning Alisher Navoiy “Xamsa”si, xususan, “Layli va Majnun” dostoni ilmiy-tanqidiy matnini yaratish ustida olib borgan ilmiy izlanishlari tahlilga tortilgan. “Layli va Majnun” ilmiy-tanqidiy matnini yaratish jarayonida olimning professor G‘ulom Karimov bilan olib borgan ilmiy munozarasiga munosabat bildirilgan. Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matn nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatidagi faoliyati shu asosda o‘rganilib, mavzuga doir ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** matn, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, qo‘lyozma, tayanch manba, yordamchi manba, qiyosiy-matniy tahlil.

### **Аннотация**

В статье анализируются исследования текстолога Порсо Шамсиева по созданию научно-критического текста «Хамсы» Алишера Навои, в частности эпоса «Лейли и Меджнун». В процессе составления научно-критического текста «Лейли и Меджнун» была прокомментирована научная дискуссия ученого с профессором Гуломом Каримовым. На этой основе изучена деятельность Порсо Шамсиева как теоретика и практика научно-критического текста и сделаны научные выводы по данному вопросу.

**Ключевые слова:** текст, текстология, научно-критический текст, рукопись, основной источник, вспомогательный источник, сравнительно-текстовый анализ.

## Annotation

The article analyzes the research of the textologist Porso Shamsiev on the creation of the scientific-critical text of "Khamsa" by Alisher Navoi, in particular the epic "Leyli and Majnun". In the process of compiling the scientific-critical text "Leyli and Majnun", the scientific discussion of the scientist with Professor Gulom Karimov was commented on. On this basis, the activities of Porso Shamsiev as a theorist and practitioner of a scientific-critical text were studied and scientific conclusions were drawn on this issue.

**Key words:** text, textual criticism, scientific-critical text, manuscript, main source, auxiliary source, comparative text analysis.

O‘zbek matnshunosligi shu paytgacha erishgan yutuqlar, shubhasiz, salmoqli. Adabiyotimiz tarixini, ayniqsa, buyuk shoir va mutafakkir hazrat Alisher Navoiy adabiy merosini o‘rganishning katta mehnat va zahmat talab qiladigan ushbu sohasi rivojida ustoz olim Porso Shamsiyevning xizmatlari alohida o‘ringa ega. Matnshunoslikning rivoji uchun imkoniyat har qachongidan ham kengaygan bugungi kunda ustoz olimlar ilmiy laboratoriyasini o‘rganish soha taraqqiyoti uchun, ayniqsa, zarur. Nafaqat hazrat Alisher Navoiy merosi yoki o‘zbek adabiyoti, umuman, jahon adabiy-estetik tafakkuri yuksalishining cho‘qqisi bo‘lgan “Xamsa” dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish nechog‘liq mashaqqat va zahmat talab qilishi qo‘lyozma manbalar tadqiqi bilan shug‘ullangan har bir mutaxassis uchun kunday ayon. Ustoz Porso Shamsiyev ana shu zalvorli ishni bir olim uddalashi mumkin bo‘lgan darajada mukammal ado etgani, birinchidan, navoiyshunoslik takomiliga mustahkam zamin hozirladi, ikkinchidan, o‘zbek nazariy va amaliy matnshunosligi rivojini ta’min etdi.

Ilmiy-tanqidiy matn adabiyot tarixini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega ekani isbot talab qilmaydi. Negaki, mumtoz asarlar qo‘lyozmalarini o‘zaro qiyosiy tahlil etish negizida asliyatga muvofiq, ishonchli matnlarini tiklamay turib, muallif ijodiy laboratoriyasi, asar badiiyati, tasvir metodlari kabi alohida ahamiyatga molik mavzu yo‘nalishlarining birortasi ustida ham asosli tadqiqot

ishlarini olib borib bo'lmaydi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy "Xamsa"ning har bir dostoni ilmiy-tanqidiy matni yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni o'rganish sohaning istiqbolini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Porso Shamsiyevning o'zbek matnshunosligi va navoiyshunosligi takomiligi nechog'liq katta hissa qo'shganini aniqlash uchun "Xamsa" va uning uchinchi dostoni "Layli va Majnun" ilmiy-tanqidiy matni yuzasidan ungacha erishilgan ilmiy yutuqlarni tahlil etishga va bu borada olim amalga oshirgan tadqiqotlar salmog'ini baholashga harakat qilamiz. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy-tanqidiy matn nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ustoz olim tadqiqotlarining o'rmini aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, "Layli va Majnun" dostoni ilmiy-tanqidiy matni birinchi bo'lib 1944-yili professor G'ulom Karimov tomonidan amalga oshirilgan. Olim dastlab ilmiy-tanqidiy matn tayyorlash prinsiplarini ishlab chiqadi. Ish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilgan: 1) "Layli va Majnun"ning nashr (toshbosma va bosma) nusxalari qiyosiy o'rganilib, zamon talablari nuqtai nazaridan baholangan; 2) dostonning qo'lyozma manbalari o'zaro muqoyasa etilib, tayanch manbalar aniqlangan; 3) asarning ilmiy-tanqidiy matni hozirlangan.

Dostonning nashr nusxalarini o'rgangan olim mana bunday xulosaga keladi: "Xamsa"ning to'liq bir necha nashrlari bo'lganidek, "Layli va Majnun" dostonining litografiya va tipografiya yo'li bilan bosilgan bir nechta alohida nusxalari mavjud. Bularning hammasi ham xarakter e'tibori bilan ommaviy nashr bo'lib, hech birida asl Navoiy tekstlarini tiklash, bugungi ma'nodagi ilmiy-tanqidiy tekst hozirlash masalasi vazifa qilib qo'yilmagan. Shunday bo'lishiga qaramay, ularning tajribasi bilan tanishish, Navoiy tekstlarini qanday nashr qilib kelganliklarini ko'zdan kechirib chiqish "Layli va Majnun" dostonini akademik nashrga hozirlashda foydadan xoli bo'lmasa kerak" [4.7].

Ko'rinib turibdiki, olim asarning akademik nashrini amalga oshirish zaruratini ta'kidlagan. Buning uchun esa, avvalo, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlanishi kerak edi. Aks holda mazkur maqsadga erishib bo'lmasligi ma'lum.

Sababi, turli davrlarda turlicha maqsadlar bilan amalga oshirilgan nashr nusxalar talab darajasida emas edi.

Olim asarning quyidagi nashrlarini o'rgangan: 1) 1879-yilgi Xiva litografiyasi; 2) 1904-yilgi Toshkent litografiyasida bosilgan Shomurod kotib ko'chirgan toshbosma; 3) Amin Umariy va Husaynzoda tayyorlagan 1941-yilgi alohida nashr; 4) Sadriddin Ayniy tayyorlagan 1940-yilgi "Xamsa" tarkibidagi va 5) Umar Boqiy amalga oshirgan 1910-yilgi; 6) Xurshid tayyorlagan 1925-yilgi; 7) "Xamsai benazm bonasr" nomi bilan 1908-yili chop etilgan nashrlar.

Mazkur nashr nusxalar muqoyasasi natijasida ularda mavjud kamchiliklar chuqur ilmiy tahlil etilgan, zarur xulosalar chiqarilgan. Olim ko'rsatgan kamchiliklarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- kotiblar asos qilib olgan nusxalar nuqsonli va ular matn ustida jiddiy ishlamagan. Tuzatish mumkin bo'lgan xatolarning o'tib ketgani va o'nlab misralarning tushirib qoldirilgani shundan dalolat beradi;

- ayrim nashrlarda "Layli va Majnun" hamda "Xamsa"ning boshqa dostonlari XX asr o'quvchilari saviyasiga muvofiqlashtirilib "tahrir" qilingani natijasida matn asliyatdan uzoqlashgan;

Olimning bu fikrlari nafaqat "Layli va Majnun", balki "Xamsa"ning boshqa dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda ham foydali bo'lganini ta'kidlash kerak.

"Xamsa" dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishga shundan keyin kirishgan Porso Shamsiyev "Alisher Navoiy "Sab' ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida professor G'ulom Karimov bilan ayrim masalalarda munozara qilgan. Ta'kidlash zarurki, ikki ustoz olim bahsi ilmiy munozara madaniyatining nechog'liq baland ekani nuqtayi nazaridan bugungi kunda hamda istiqbolda tadqiqotchilar uchun munosib saboq bo'la oladi.

Porso Shamsiyev matnshunos G'ulom Karimov tadqiqotiga munosabat bildirar ekan, ilmiy-tanqidiy matn uchun Abduljamil kotib tomonidan kitobat qilingan qo'lyozmaning olinishi maqsadga muvofiq ekanini e'tirof etish

barobarida, 1904-yilgi Toshkent litografiyasida bosilgan Shomurod kotib ko‘chirgan toshbosmaning olinishi to‘g‘ri bo‘lmaganini aytadi [5.57-63].

Shomurod kotib ko‘chirgan toshbosmani tahlil etgan Porso Shamsiyev bu manbaning ikki kamchiligini alohida ajratib ko‘rsatadi: 1) “Xamsa”ning birgina “Sab‘ai sayyor” dostoni matnining 30 eridan 50 bayti tushirib qoldirilgan; 2) ba‘zan bila turib, ba‘zan bilmasdan yuzaga keltirilgan farqlar soni juda ko‘p. Olim bu farqlardan eng asosiylarini misol qilib keltiradi. Shunga ko‘ra, bu manbani ilmiy-tanqidiy matn uchun nafaqat tayanch, hatto qo‘shimcha manba sifatida ham olmaydi.

Porso Shamsiyev hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa”si ilmiy-tanqidiy matni ustida zahmatli ish olib borgan. Shu jarayonda buyuk mutafakkirning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (Olim Usmon tomonidan tayyorlangan), “Mahbubu-l-qulub” (A.N.Kononov tuzgan), “Mezonu-l-avzon” (Izzat Sulton tayyorlagan), “Hayratu-l-abror” (Tuzuvchi: Solih Mutallibov), “Layli va Majnun” (G‘ulom Karimov tayyorlagan) singari asarlari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy matnlarni tahlil qilib, yutuqlarini xolis e‘tirof etadi, kamchiliklarini ochiq ko‘rsatadi. “Xamsa” dostonlari, jumladan “Layli va Majnun”ning Porso Shamsiyev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni nisbatan mukammal ekani bilan alohida ajralib turadi.

Porso Shamsiyev o‘zbek matnshunosligida birinchi marta Alisher Navoiy asarlarining eng ishonchli, tayanch manba bo‘la oladigan qo‘lyozmalari buyuk shoir hayotlik chog‘ida Hirotning mashhur xattotlari Abduljamil va Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan nusxalari ekanini asosli ilmiy dalilladi. Olim fikricha: “Abduljamil nusxasi Alisher Navoiy “Xamsa”sining ta‘rix e‘tibori bilan, dunyo miqyosida hozirgi kunimizga qadar ma‘lum bo‘lgan eng qadimiy qo‘lyozmasidir. Hatto qat‘iy aytish mumkinki, shoirning bevosita nazorati ostida birinchi originaldan ko‘chirilgan dastlabki nusxa yoki eng birinchi nusxalarning biridir. Demak, Abduljamil kotibning nusxasi tarixiy jihatdan shoirning asosiy originaliga eng yaqin birinchi mo‘tabar qo‘lyozmadir” [6.75].

“Sab‘ai sayyor”dagi:



Varaqu satrin aylabon ta'yin

Baytini besh ming ayladim taxmin, -

baytini keltirgan olim mazkur “besh ming bayt (10 000 misra)ning hammasi bu nusxada mavjudligi hamda shunday katta bir asarda kotibning mexanik va texnik xatosi arzimagan miqdorda ekani”ni (2.8) ushbu fikriga dalil sifatida keltiradi.

Olimning ta'kidlashicha, “Xamsa”ning tayanch manba vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan ikkinchi qo'lyozmasi “Qiblatu-l-kuttob” unvoni sohibi Sultonali Mashhadiy ko'chirgan nusxadir. Bu mashhur xattotning yuksak salohiyatini hazrat Alisher Navoiyning o'zi ham quyidagicha e'tirof etgan: “Mavloni Sultonali mashhadlikdur. Bugun Xurosonda va olamning aksar bilodida nasta'liq xatida “qiblatu-l-kuttob”dir va kitobat mulkining qalamravi yakqalami anga musallamdur” [1.387].

Sultonali Mashhadiy ko'chirgan nusxani sinchiklab o'rgangan Porso Shamsiyev unda birgina “Sab'ai sayyor” matnida Abduljamil nusxasiga nisbatan to'rt misra etishmasligini va ba'zi bir mexanik xatolar borligini aniqlaydi. Shunga qaramay, uni tayanch manba sifatida olish mumkinligini ta'kidlaydi.

Matnshunos Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasini o'rgangan yosh olim G'iyosiddin Shodmonov kuzatishicha, ustoz olimlar G'ulom Karimov va Porso Shamsiyevning ish uslubi va tanlagan prinsiplarining o'xshashligiga ikki omil – birinchidan, har ikki ishning boshida professor E.E.Bertels turgani, ikkinchidan, mazkur ilmiy-tanqidiy matnlarning tuzilishida o'sha davrda faoliyat yuritgan boshqa olimlar bilan ijodiy hamkorlik katta ta'sir ko'rsatgan [7.116].

Darhaqiqat, zamonaviy o'zbek matnshunosligi, ayniqsa, hazrat Alisher Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish bo'yicha ilmiy an'ananing shakllanishi va takomilida Y.E.Bertelsning xizmatlari alohida bo'lganini e'tirof etish zarur. Professor G'ulom Karimovning “Layli va Majnun” dostoni ilmiy-tanqidiy matniga so'zboshida ustoziga minnatdorlik izhori sifatida yozgan quyidagi so'zlari ham buni tasdiqlaydi: “Aslida, bu ishning ilhomchisi va tashkilotchisi Yevgeniy Eduardovich Bertels edi. U kishining kundalik g'amxo'rliqi, ishning hamma bosqichlarini ham zo'r qiziqish bilan kuzatib borishi

va tekstologiya kabi qiyin sohaning texnikasini egallashda mamnuniyat bilan ko'rsatgan yordamlari ishlovchida havas va ishtiyoq qo'zg'atganidek, ishning oqsamay davom etishini ham ta'min qildi... Y.E.Bertelsning bu ishda ko'rsatgan uzluksiz yordami va rahbarligi uchun minnatdorman" [8.1-2].

Porso Shamsiyev va G'ulom Karimov kabi ustoz olimlarning matnshunoslikka doir tadqiqotlarini, bir-birlari bilan olib borgan ilmiy munozaralarini o'rganish natijasida nafaqat "Layli va Majnun" yoki "Xamsa"ning to'liq matni, balki Alisher Navoiyning barcha asarlari va umuman, mumtoz adabiyotimiz namunalarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ilmiy-tanqidiy matn uchun ko'p nusxani asos qilib olish ishni murakkablashtirib yuboradi. Buning natijasida nusxalararo farqlar ko'rsatkichi nihoyatda ko'payib ketib, foydalanishni ancha qiyinlashtiradi. Ishonchli ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash uchun asosan ikki-uch tayanch qo'lyozmani tanlash va ular bilan ish ko'rish kifoya qiladi.

2. Matnshunos ko'p nusxalarni ko'rib, tekshirib chiqishi va ulardan eng ishonchlilarini tayanch manba qilib olishi zarur. Chalasavod kotiblar nusxalarini ham olib, ularning barcha farqlarini, xatolarini ilmiy apparatga kiritaverish talab qilingan ilmiy-tanqidiy matnni ta'min qilmaydi. Matnshunos har qanday kotib qo'lyozmasiga tanqidiy yondashmog'i kerak. Qo'lyozmalardagi har bir juz'iy farqni ilmiy apparatga olaverish ishning qimmatini oshirishga emas, buning ziddiga xizmat qiladi. Zero, tuziladigan ilmiy-tanqidiy matn barcha qo'lyozmalardagi afzalliklarni (mayda-chuyda kamchiliklarni emas) o'zida mujassam etishi kerak.

3. Muayyan asarning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda tayaniladigan manbalar quyidagi tartibda tanlanishi maqsadga muvofiq: 1) muallifning dastxat nusxasi; 2) dastxat nusxa mavjud bo'lmasa, muallif davrida ko'chirilgan qo'lyozma; 3) muallif davriga yaqin kitobat qilingan manba.

4. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishdan asosiy maqsad muayyan asarning har qanday shubha va nuqsonlardan xoli bo'lgan mustahkam va ishonchli matniga

ega bo‘lishdir. Busiz maqsadga erishish mahol. Negaki, nuqsonli matn ustida nuqsonsiz tadqiqot yaratib bo‘lmaydi. Chala matn ustida olib borilgan tadqiqot, qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin, hech qachon talab darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Bugun o‘zbek matnshunosligi sohasi rivojlanish bosqichiga kirmoqda. Porso Shamsiyev singari ustoz olimlarning ilmiy laboratoriyasiga kirish, ularning mumtoz badiiy matnga yondashuv mezonlarini, tadqiqot olib borishdagi o‘ziga xos usullarini o‘rganish, shubhasiz, bu boradagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar saviyasi yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Алишер Навоий. Мажолису-н-нафоис. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
  2. Алишер Навоий. Хамса. Сабаи сайёр. Илмий-критик текст (Тайёрловчи: Порсо Шамсиев). Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1956.
  3. Сирожиддинов, Шухрат. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типология, текстология таҳлили. Тошкент, “Академнашр”, 2011.
  4. Каримов, Ғулом. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” асари критик тексти: Филология фанлари номзоди... дис. - Тошкент, 1944.
  5. Шамсиев, Порсо. Алишер Навоий "Сабаи сайёр" достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида: Филология фанлари номзоди... дис. - Тошкент, 1952.
  6. Шамсиев, Порсо. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: Филология фанлари доктори... дис. - Тошкент, 1970.
  7. Шодмонов, Ғиёсиддин. Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни. PhD диссертацияси. Тошкент, 2021.
- Ғулом Каримов архив фонди. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи. 50-55 папка. 2-файл – Б.1-2.

# PORSO SHAMSIYEVNING ILMIIY-TANQIDIY MATNGA OID NAZARIY QARASHLARI VA TADQIQ USULLARI

*G'iyosiddin SHODMONOV,*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,*

*Qarshi davlat universiteti*

[shodmonov786@gmail.com](mailto:shodmonov786@gmail.com)

+998973822131

## **Annotatsiya**

Maqolada matnshunos olim Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matn tuzishga oid nazariy qarashlari xususida to'xtalangan. Ushbu nazariy qarashlar olim davri va bugungi zamonaviy matnshunoslik tamoyillari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Shuningdek, matnshunos tomonidan tuzilgan Navoiy "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matnlari va ularning soha taraqqiyotidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-tanqidiy matn, matn tarixi, matnshunos, matnshunoslik, kotib, xattot, qo'lyozma, manba, Navoiy, Xamsa, doston.

## **Аннотация**

В статье рассматриваются теоретические взгляды текстолога Порсо Шамсиева на создание научно-критического текста. Эти теоретические воззрения были проанализированы в связи с эпохой ученого и принципами современной текстологии на сегодняшний день. Освещены также научно-критические тексты произведения Навои «Хамса», составленные текстологом, и их значение в развитии сферы.

**Ключевые слова:** научно-критический текст, история текста, текстолог, текстология, секретарь, рукопись, каллиграф, источник, Навои, Хамса, эпический.

## **Annotation**

The article discusses the theoretical views of textual critic Porso Shamsiev on the creation of a scientific and critical text. These theoretical views were analyzed in connection with the era of the scientist and the principles of modern

textual science today. The scientific and critical texts of Navoi's "Khamsa", compiled by the textual critic, and their significance in the development of the sphere are also highlighted.

**Keywords:** scientific-critical text, text history, textologist, textology, secretary, manuscript, calligrapher, source, Navoi, Khamsa, epic.

Yurtimizda ilmiy-tanqidiy matn tuzish ishlari hali II jahon urushi tugab ulgurmasdanoq boshlangan edi. Jumladan, 1944-yil Y.E.Bertels tahriri ostida "Layli va Majnun" dostonining ilmiy-tanqidiy matni G'ulom Karimov tomonidan amalga oshiriladi (*Ushbu tanqidiy matn va unga yozilgan so'zboshi nashr etilmagan va u Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyi G'ulom Karimov arxiv fondida 51–55 va 56-raqamdagi papkalaprdada saqlanadi. – G'.Sh.*). Shu yilda Solih Mutallibov Navoiy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Hayratu-l-abror"ning ilmiy-tanqidiy matnini ham tuzadi. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning "Mahbubu-l-qulub" (A.N.Kononov tuzgan) [4], "Mezonu-l-avzon" (Izzat Sulton tayyorlagan), "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" (M.A.Salye tuzgan) kabi asarlarining matnlari ustidagi tadqiqotlar ham dastlabki jiddiy tekstologik ishlardan hisoblanadi (*Porso Shamsiyevning tadqiqotlarida bu qilingan ishlar yo'qolgani aytiladi. – G'.Sh.*).

Ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilish va nashr etish ishlarida bevosita ishtirok etgan Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matn tuzish hamda ilmiy nashrga oid nazariy qarashlari mana shu jarayonlarda shakllanib boradi. Bu hol, ayniqsa, olimning "Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida" deb nomlangan nomzodlik (1952), "Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari" mavzusidagi doktorlik (1969) dissertatsiyalari ustida olib borgan tadqiqotlarida yanada yorqin ko'rinadi. Unda matnshunos yuqorida ko'rsatib o'tilgan matnshunoslik ishlarini tahlil qilib, erishilgan yutuqlarni xolis baholaydi, nuqson va kamchiliklarni ochiq ko'rsatadi. Xususan, P.Shamsiyev "Hayratu-l-abror" hamda "Layli va Majnun" dostonlari matni eng qadimiy nusxalarga murojaat qilib tayyorlanganini e'tirof

qilgani holda, ularning ishni eski tamoyil asosida olib borganlarini tanqid qiladi: “Bu ikki asarni tayyorlashda to‘rtta nusxa asosga olingan bo‘lishiga qaramay, tekstologlar ishni eski prinsiplar asosida olib borganliklarini, nusxalar aro uchragan farqlar haqida o‘z fikrlarini aniq bayon qilmaganliklarini qayd etib o‘tishga to‘g‘ri keladi” [20:21].

Albatta, olimning bunday mulohaza yuritishi muayyan asosga egadir. Filologiya fanlari doktori Nafas Shodmonov tanqidiy matn prinsiplari haqida fikr yuritib, unda nusxalar orasidan tayanch va yordamchi nusxalar aniqlab olingandan keyin ularni shartli belgilash hamda o‘zaro tafovutlarni qoldirmay aks ettirish lozimligini ta’kidlaydi [22:17]. P.Shamsiyevning yuqoridagi qarashi tanqidiy matn tuzishning bugungi nuqtai nazarlariga ham muvofiq kelishi diqqatga sazavor.

Shuningdek, matnshunos olim A.N.Kononov tomonidan tuzilgan “Mahbubu-l-qulub” matni yuzasidan ham o‘z qarashlarini bildirgan edi. Jumladan, unda Porso Shamsiyev tayyorlovchi tomonidan matnni tuzishda 8 ta qo‘lyozma, yana qo‘shimcha oltita qo‘lyozma va bosma nusxalar bilan ish ko‘rilganini, bu 14 nusxadan yolg‘iz ikkitasi eskiroq (*olim ularning birinchisini XVI asr boshlari, ikkinchisini shu asrning oxiriga tegishli deb ko‘rsatadi – G‘.Sh.*), qolganlari esa XVIII, XIX, hatto XX asrga oid qo‘lyozma va bosma nusxalar ekani haqida ma’lumot berib o‘tadi. Matnshunos fikrini davom ettirib shunday deydi: “Bu qadar ko‘p nusxani asosga olish ishni murakkablashtirib yuborgan. Farqlar ko‘rsatkichi benihoya ko‘payib ketib, foydalanishni ancha qiyinlashtirib qo‘ygan. Modomiki, vazifa ishonchli tekstni tayyorlab berish ekan, bu holda, fikrimizcha, 2 – 3 yo 3 – 4 ta to‘g‘riroq qo‘lyozma bilan ish ko‘rishning o‘zi kifoya qilar edi. Tekstolog, shubhasiz, ko‘p nusxalarni ko‘rib, tekshirib chiqishi kerak, lekin chalasavod kotiblar nusxalarini ham asosga olib, ularning barcha farqlarini – to‘g‘risi, xatolarini kritik tekstga kiritaberish, talab qilingan ilmiy tekstni ta’min qilmaydi” [20:18;19].

Albatta, to‘g‘ri kelgan qo‘lyozma manbalardan, bosma nusxalardan foydalanish ishni butunlay teskari tomonga burib yuborishi tayin. Natijada buyuk

ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan asarlarning asliga muvofiq matnlarini tiklashga bo‘lgan harakat zoye’ ketib, aksincha, uning badiiyatiga putur yetkazish, g‘oyalarning noto‘g‘ri talqiniga yo‘l ochib berish mumkin. Ushbu masala matnshunoslikning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Rus matnshunosi B.V.Tomoshevskiyning ta’kidlashicha, matn tanqidida hujjatning (*adabiyotda badiiy matnning – G‘.Sh*) aslligi va barcha qismlarining unga muvofiqligi muhim sanaladi [18:148]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, matnshunosning asosiy vazifasi aslyatga mos matnni tiklash va nashrga tayyorlashdir. Biroq A.N.Kononov tuzgan matn borasida bunday deb bo‘lmaydi. Porso Shamsiyev o‘z ishlarida uning diqqatsizlik natijasida yo‘l qo‘ygan ko‘plab xatolarini ko‘rsatib o‘tgan.

Ushbu davrda ilk bor Alisher Navoiyning aruz vazni ilmiga oid “Mezonu-l-avzon” risolasi ilmiy-tanqidiy matni ham tuzilgan edi [6]. 1949-yil akademik Izzat Sultonning nomzodlik dissertatsiyasi doirasida tayyorlangan bu ishni Porso Shamsiyev boshqa tanqidiy matnlarga nisbatan yuqori baholaydi.

Porso Shamsiyev mazkur tanqidiy matn yutuqlarini e’tirof qilgani holda, ayrim kamchiliklarga ham diqqat qaratadi: “Ko‘rinishicha, bu besh qo‘lyozmaning birortasi ham avtor davridagi yoki u davrga yaqinroq nusxa emas. Hammasi XVIII asrga taalluqlidir. Bu hol farqlar ko‘payib, ishning murakkablashib ketuviga, hatto bir qancha o‘rinlarda tayyorlovchining asosiy tekstga o‘zi tomonidan tuzatishlar kiritishiga sabab bo‘lgan” [20:20].

Bu davrda yuzaga chiqqan ana shunday muhim tadqiqotlarda ayrim kamchiliklar bo‘lishiga qaramay, ular keyingi davr ilmiy-tanqidiy matnlarining yangi mezonlar asosida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarixiy-adabiy asarlarning bu kabi tanqidiy matnlarini tuzish jarayonlaridan orttirilgan katta tajribalar natijasida Navoiyning boshqa ko‘plab asarlari ustida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Porso Shamsiyev amalga oshirgan “Xamsa” dostonlari, Suyima G‘aniyeva tuzgan “Majolisu-n-nafois” asari, Sharofiddin Eshonxo‘jayev tayyorlagan “Lisonu-t-tayr” dostoni ilmiy-tanqidiy matnlari shular jumlasidandir.

Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matnga oid ilmiy-nazariy qarashlari va tadqiqot usullari uning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Jumladan, olim 1956- yilda Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kirgan “Sab’ai sayyor” dostoni ilmiy-tanqidiy matnini nomzodlik dissertatsiyasi doirasida tayyorlab, ilmiy jamoatchilikka taqdim qiladi [10]. Ushbu ilmiy-tanqidiy matn yuksak saviyada tayyorlangani bilan o‘zbek matnshunosligida alohida ahamiyat kasb etdi.

Shu o‘rinda mazkur doston tanqidiy matni bilan bog‘liq muhim bir masalaga oydinlik kiritishni zarur deb hisoblaymiz. Adabiyot tarixida Porso Shamsiyev hozirlagan matn ilmiy-tanqidiy matn emas, yig‘ma-qiyosiy matn degan qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlar dalili sifatida akademik Alibek Rustamov tomonidan olib borilgan tadqiqot va unda aniqlangan xatolar statistikasi ko‘rsatib o‘tiladi [15].

Avvalo, ilmiy-tanqidiy matnda turli xatolarning uchrashini tabiiy hol sifatida baholash zarur. U bosqichma-bosqich takomillashib boruvchi jarayondir. Bu borada o‘zbek matnshunosligining yirik olimlaridan biri A.Hayitmetov asosli fikr bildirgan edi: “...hech bir matnshunos uzoq o‘tmish asarlari matnlarini xatosiz o‘qishga oldindan so‘z bera olmaydi. Adabiyotimiz tarixiga doir asarlarning ilmiy matnlari birdaniga emas, asta-sekin takomillashib boradi” [19:171]. Bu borada boshqa matnshunoslar ham o‘z qarashlarini bildirgan. [17:3]. Porso Shamsiyev ham o‘zi tuzgan matnning mukammalligiga da’vo qilmagan va ularni keyingi avlod vakillari takomillashtirib borishiga umid bildirgan edi [21:89].

Biz Porso Shamsiyev tayyorlagan “Sab’ai sayyor” dostoni matnining ilmiy-tanqidiy matn ekanini isbot qiluvchi ayrim xususiyatlari haqida “Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq usullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni” nomli dissertatsimizda alohida to‘xtalganmiz [23:47].

Ma’lumki, “matnshunoslik o‘z oldiga yozma yodgorlikka oid matn tarixini u mavjud bo‘lgan barcha – muallif, kotib, muharrir va tuzuvchilar qo‘lidan o‘tishi bilan bog‘liq bosqichlarda, boshqacha aytganda, yodgorlik matniga o‘zgartirish



kiritilishi mumkin bo'lgan har bir etap bo'yicha o'rganish maqsadini qo'yadi. Matn tarixini uning ayrim qirralarini epizodik o'rganish orqali emas, faqat yaxlit va bir butun holda tadqiq etish yo'li bilangina yozma yodgorlikning birlamchi muallif matnini tiklashga erishish mumkin" [3:32]. Shu nuqtai nazardan, matnshunosga ilmiy-tanqidiy matn tuzishda qo'yiladigan dastlabki jiddiy talab – bu matn uchun asos bo'lishga loyiq eng qadimiy va nodir manbalarni aniqlash hamda matn tarixini kompleks o'rganishdir. Buni Porso Shamsiyev ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan edi. Olim fikricha: “Qandaydir biror qadimiy yodgorlikni xoh transkripsiya yo'li bilan, xoh transliteratsiya yo'li bilan yoki asli holicha nashr etiladigan bo'lganda, dastlab o'sha asar teksti tarixini o'rganish, puxta tekst tayyorlash, asarni shunday tekstga tayangan holdagina nashr etish asosiy shartlardandir” [21:27].

Ushbu o'rinda matn tarixi atamasi bilan bog'liq masalaga, ya'ni uning adabiy yodgorlik matni bilan bog'liq qaysi xususiyatlarni o'zida jamlashi lozimligi to'g'risida to'xtalib o'tish joiz. Professor Shuhrat Sirojiddinov ushbu atama bilan aloqador ish jarayonini shunday izohlaydi: “Matn tarixini o'rganish qo'lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar *to'liq, nuqsonli, tuzatilgan* (redaksiyaga uchragan) yoki tugatilmagan ko'rinishlarda uchraydi. Qo'lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi” [16:18].

Matnshunos olim Nurboy Jabborovning fikricha: “Matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha, u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi” [2:12]. Tabiiyki, bunday yondashuv badiiy asar matni bilan bog'liq barcha masalalarni qamrovli tadqiq qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytganda, bunda o'rganilayotgan asarning yaratilishiga kichik turtki yoxud jiddiy sabab bo'lgan, ya'ni siyosiy,

ijtimoiy hodisalardan tortib, yozilish davri, muallifi, kotiblar, asar variantlari yoki unga eng yaqin manbalarni jamlash, tanlash, qiyoslash, umuman, mukammal, original matnni tiklab, nashr ettirishgacha bo‘lgan jarayonlar tushuniladi. Xullas, matnshunoslikning asosiy vazifasi matn tarixini yaxlit va bir butun holda o‘rganmoqdir.

Porso Shamsiyev tekstologik tadqiqotlarni ana shu yaxlitlik, bir butunlikni unutmagan holda olib boradi. Ish jarayonida olim dostonga aloqador muhim hujjatlar, asar yozilgan davrning siyosiy va ijtimoiy muhiti, Navoiy bilan zamondosh kotiblar haqidagi ma’lumotlarni to‘playdi. Tekshirishlar yakunida u “Sab’ai sayyor” dostoni ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun eng munosib manba sifatida “Xamsa”ning uchta qadimiy – kotib Abduljamil [7], Sultonali Mashhadiy [8] va XVI asrga tegishli “M” [9] belgili (*P.Shamsiyev ushbu kolofonsiz nusxani shartli ravishda “M” tarzida belgilaydi – G‘.Sh.*) qo‘lyozma nusxalarni tanlab oladi.

Aslida ilmiy-tanqidiy matn muallif avtografi – qo‘lxati asosida tuzilishi kerak. Lekin Navoiy asarlarining manbalari xususida bunday deyish mushkul. Chunki bugungi kungacha shoirning o‘z qalami bilan yozilgan biror qo‘lyozmasi topilmagan. Bu esa asl matnni tiklash yo‘lida olib boriladigan tadqiqotlarni ancha murakkablashtiradi. Shu bois Navoiy matnshunosligidagi asosiy vazifalardan biri ham, avvalo, eng qadimiy va ishonchli qo‘lyozma manbalarni aniqlash hisoblanadi.

Mazkur qo‘lyozma manbalar haqida gap ketganda, avvalo, Alisher Navoiy asarlarining eng ishonchli, tayanch manba bo‘la oladigan qo‘lyozmalaridan biri bo‘lgan Abduljamil nusxasi haqida to‘xtalish o‘rinlidir. Bu mo‘tabar manbani birinchi bo‘lib 1930- yilda professor Y.E.Bertels chet elga sotish uchun mo‘ljallanayotgan qo‘lyozmalarni tekshirish jarayonida tasodifan aniqlagan va yurtimizda olib qolinishiga sababchi bo‘lgan [1]. Lekin bu qo‘lyozmani Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari uchun eng ishonchli, tayanch manba bo‘la oladigan nusxa ekanini, ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etgan va ishlarida keng istifoda etgan olim Bertelsning shogirdi – Porso Shamsiyev edi. Olim fikricha:

“Abduljamil nusxasi Alisher Navoiy “Xamsa”sining tarix e’tibori bilan, dunyo miqyosida hozirgi kunimizga qadar ma’lum bo’lgan eng qadimiy qo’lyozmasidir. Hatto qat’iy aytish mumkinki, shoirning bevosita nazorati ostida birinchi originaldan ko’chirilgan dastlabki nusxa yoki eng birinchi nusxalarning biridir. Demak, Abduljamil kotibning nusxasi tarixiy jihatdan shoirning asosiy originaliga eng yaqin birinchi mo’tabar qo’lyozmadir” [20:30].

“Xamsa”ning tayanch manba vazifasini o’tashi mumkin bo’lgan ikkinchi qo’lyozmasi “Qiblatau-l-kuttob” unvoni sohibi Sultonali Mashhadiy ko’chirgan nusxadir.

Bu ikki qo’lyozma manbadan tashqari, “Xamsa”ning boshqa yana bir qadimiy nusxasi bo’lib, uning ko’chiruvchisi va ko’chirilgan yili haqida qo’lyozmaning o’zida hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Lekin xatining Abduljamil bilan Sulton Alinikiga o’xshashligi va boshqa belgilari qo’lyozmaning qadimiyligidan darak beradi. P.Shamsiyev ushbu nusxaning belgilariga qarab, XVI asrga oid qo’lyozma, deb taxmin qiladi. Bu nusxa ham ishonchli, original nusxaga yaqin turgani bois yordamchi manba sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni mana shu uch qo’lyozma manba asosida tuzildi.

Albatta, Porso Shamsiyev juda ko’plab adabiy yodgorliklar bilan ishlash natijasida katta tajribaga ega bo’lgan. Olim bu boradagi aksar fikrlarini ko’p o’rinlarda nazariy asosda dalillaydi ham. Shunday bo’lsa-da, matnshunosning qo’lyozma manbalarga oid ayrim qarashlariga to’liq qo’shib bo’lmaydi. Jumladan, Porso Shamsiyev o’z tadqiqotlarida qo’lyozma nusxalar qanchalik qadimiy bo’lsa, uning originalga yaqinligi shuncha ortadi, aksincha bo’lsa, asl matndan juda uzoqlashib ketadi degan qarashni ilgari suradi: “Navoiy asarlarini ilmiy nashrga tayyorlashdagi tekstologik ishlar shuni ko’rsatdiki, qo’lyozmaning davri qancha beri kelabersa, asl originaldan shuncha chetlashib borgan, o’zgarishlar, tushirib qoldirishlar, hatto ba’zan orttirmalar paydo bo’lgan” [20:46].

Bizningcha, qo‘lyozma manbalar xususida bunday qarash o‘zini to‘la oqlamaydi. Chunki hazrat Navoiyning hayotlik chog‘idan boshlab, asrlar davomida turli joylarda, turli tabaqa va xilma xil saviyadagi xattotlar, qolaversa, shoir asarlarining ixlosmandlari qalami bilan ham ko‘chirilib, yuzlab qo‘lyozmalar yaratilgan. Albatta, bugungi kungacha ham o‘sha qo‘lyozma nusxalarning barchasi aniqlanib ulgurilmagan. Shunday bo‘lgach, ya’ni hali fanga noma’lum bo‘lgan, ilmiy jihatdan tavsiflanmagan, sharhlanmagan yurtimiz va chet el kutubxonalarida, qolaversa, shaxsiy kutubxonalarda ham saqlanayotgan ko‘plab qo‘lyozma nusxalar mavjudligi e’tiborga olinsa, yuqoridagicha qat’iy xulosa chiqarish, to‘xtamga kelish nojoiz. Bunday qarash aslida o‘zbek matnshunosligining dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo‘lgan va bugungacha amalga oshirilgan ishlarda aynan shu prinsipga amal qilinib kelinmoqda.

Tadqiqotlarimiz jarayonida shaxsiy kutubxonalardan birida saqlanayotgan Alisher Navoiy “Xamsa”sining XIX asrga tegishli bir qo‘lyozma nusxasi qo‘limizga kelib tushdi. Ta’kidlash joizki, aynan shu nusxa o‘zbek matnshunosligi tarixida uzoq yillardan buyon qat’iylashib qolgan yuqoridagicha qarashning to‘liq asosga ega emasligini ko‘rsatuvchi muhim manbadir. Jumladan, ushbu nusxa keyingi davr qo‘lyozmalari ham ilmiy-tanqidiy matnlar uchun tayanch yoki yordamchi manba vazifasini o‘tashi mumkinligini isbotlaydi. Bu nusxa xususida ham dissertatsiyamizda tegishli xulosalar chiqarilgan [23:137;156].

Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyida saqlanayotgan Porso Shamsiyev arxiv-fondi manbalariga ko‘ra, olim doston ilmiy-tanqidiy matnining nashriga yoziladigan so‘zboshini muayyan reja asosida olib boradi. Mazkur reja ham o‘z o‘rnida olimning ilmiy-tanqidiy matn tuzish haqidagi tasavvur va qarashlarini ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir (*Fond materiallari orasida “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni uchun yoziladigan kirish so‘z plani” nomli hujjat saqlanadi. – G‘.Sh.*).

P.Shamsiyev 1963-yilda “Xamsa”ning ikkinchi dostoni – “Farhod va Shirin”ning tanqidiy matnini ham nashrdan chiqaradi [11]. Mazkur ishda oldingi

tanqidiy matndan farqli ravishda ilovalar beriladi. Ulardan o'quvchi ilmiy-tanqidiy matn tuzishda foydalanilgan qo'lyozma nusxalar haqida kengroq tasavvur hosil qiladi.

Tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Porso Shamsiyev bosqichma-bosqich "Xamsa" dostonlarining yaxlit ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzishni maqsad qilgan. Shu maqsad bilan matnshunos "Saddi Iskandariy" dostoni ustida tadqiqotlar olib boradi va 1964-yilga kelib ushbu ishni yakuniga yetkazadi [12]. Mazkur matnshunoslik ishi ham oldingi nashrlarda foydalanilgan nusxalar va prinsiplar asosida tashkil qilingan edi.

Olim keyingi tadqiqotlarda eski usuldan voz kechib, yangi prinsiplar asosida ish ko'rishni ma'qul ko'radi va buni quyidagicha izohlaydi: "Lekin uzoq yillik tekstologik tadqiqot tajribalari tekst tuzish ishimizda prinsip jihatidan ayrim o'zgarish yasashni, ilmiy apparatni yanada ixchamlashtirish hamda konkretlashtirishni keltirib chiqardi" [21:47].

Porso Shamsiyev "Saddi Iskandariy" matnini nashr qilinmaganini Qozon davlat universitetining ilmiy kutubxonasida "Xamsa"ning yana bir muhim qo'lyozmasi topilgani bilan izohlaydi. Qolaversa, o'zi ta'kidlagan yangi tamoyillar asosida ishni qayta ko'rib chiqish kerak degan xulosaga keladi.

Keyinchalik olim tadqiqotlarini yana davom ettirib, "Hayratu-l-abror" [13] hamda "Layli va Majnun" [14] dostonlari matnlarini yangi prinsiplar asosida tuzib chiqadi. Shu tariqa, "Xamsa"ning to'liq ilmiy-tanqidiy matnlari yuzaga keldi.

Xulosa qilish mumkinki, ilgari nashr etilgan ishlar hamda keyingi tadqiqotlar o'rtasida jalb etilgan qo'lyozmalar jihatidan ham, qo'llangan prinsip e'tibori bilan ham tafovutlar yuzaga kelgan. Quyida ana shu yangi prinsiplarning eski tamoyillardan farqli jihatlarini ko'rsatamiz:

*1. Oldingi matnlarda qo'lyozma nusxalar kotib ismining bosh harflari bilan ko'rsatilgan (Abduljamil – A, Sultonali – S). Bu usul yangi tamoyil bo'yicha olib borilgan ishlarda alifbo tartibida (A, B, V) ko'rsatiladigan bo'ldi;*

2. *Qo‘lyozma nusxalarda aniqlangan tafovutlar ichki xususiyatlarga ko‘ra guruhlarga bo‘lingan: 1) ma‘noga ta‘sir etuvchi asosiy farqlar; 2) imloviy farqlar; 3) kotib xatolari; 4) so‘z, misra va bayt tushib qolishidagi farqlar. Birinchi nashrlarda bunday tadqiqot usulidan qisman foydalanilgan, ya‘ni qat‘iy guruhlashtirilmagan;*

3. *Eski nashrlarda turli davrlarga oid ko‘p sonli nusxalarda uchragan, matnga jiddiy ta‘sir etmagan yoki umuman ahamiyatga ega bo‘lmagan farqlar ham ko‘rsatib borilgan. Yangi usulda esa bu tanqidiy matn tuzishdagi ilmiy yo‘l hisoblanmagan. Farqlarning matnga ta‘sir darajasi o‘rganilib, lozim topilsagina ilmiy apparatga kiritilgan;*

4. *Yangi usulda olib borilgan ishlarda ilmiy apparat sezilarli ixchamlashtirilgan va bu matn ustida tadqiqot olib borishni yanada yengillashtirgan.*

Albatta, tanqidiy matn tuzish uchun qo‘llanilgan yangicha yondashuvlar, tadqiqot uslublarining bir qadar afzalliklari bor. Buni “Xamsa”ning keyingi ishlangan tanqidiy matnlari misolida ko‘rish mumkin.

Qisqa qilib aytganda, “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda Porso Shamsiyev tomonidan qo‘llanilgan uslub va metodlar, aniq ilmiy xulosalar asosida ishlab chiqilgan tamoyillar, umuman, u tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar keyingi davr matnshunoslik ilmi takomiliga bemisl hissa qo‘shdi. Yana bir muhim jihat shundaki, olim tajribalari asosida Navoiyning boshqa asarlari ilmiy-tanqidiy matnlari ustida ham qator matnshunoslar katta tadqiqotlar olib bordilar. O‘z o‘rnida, bu ishlar navoiyshunoslikning muhim yutuqlari sifatida katta e‘tibor qozondi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Бертельс Е.Э. Навоий. Таржимон И.К.Мирзаев. – Тошкент: “Tafakkur qanoti”, 2015.

2. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни //Ўзбек мумтоз адабиётини

ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019.

3. Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во “Алетейя”, 2001.

4. Навоий Алишер. Возлюбленный сердце. Сводный текст подготовил А. Н. Кононов. – М. – Л., 1948.

5. Навоий Алишер. Лайли ва Мажнун. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1967.

6. Навоий Алишер. Мезон ул-авзон. Критик тест. Тайёрловчи Иззат Султон. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1949.

7. Навоий Алишер. Хамса. Қўлёзма. ЎзРФА ШИ фонди. Инв.№5018.

8. Навоий Алишер. Хамса. Қўлёзма. Салтиков-Шчедрин номидаги Санкт-Петербург фундаментал кутубхонаси фонди. Инв.№560.

9. Навоий Алишер. Хамса. ЎзРФА ШИ фонди. Инв.№7554.

10. Навоий Алишер. Сабъаи сайёр. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956.

11. Навоий Алишер. Фарҳод ва Ширин. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963.

12. Навоий Алишер. Садди Искандарий. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1964.

13. Навоий Алишер. Ҳайрату-л-аброр. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1970.

14. Навоий Алишер. Лайли ва Мажнун. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1967.

15. Рустамов А. Матнчилигимиздаги нуқсонлар. ЎзАС, 1982 йил, 3 сентябрь, № 36 (2672)

16. Сирожиiddинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019.

17. Содиқов Қ., Омонов Қ. Илмий-танқидий матн яратиш замон талаби. /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010 йил 20 август.
18. Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд.2-е, – Москва, 1959.
19. Ҳайитметов А. Матншунослик муаммолари. //Шарқ юлдузи, 1982. 3-сон.
20. Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. Филол. фан. номзоди. дисс. – Тошкент 1952.
21. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: Филол. фан. доктори. дисс. – Тошкент: 1969.
22. Шодмонов Н. Матншуносликда комплекс таҳлилнинг асосий вазифалари хусусида //Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари (Республика илмий анжумани материаллари). – Қарши, 2019.
23. Шодмонов Ғ. “Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари, тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни”. Филол. фан. бўйича фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2021.

## **PORSO SHAMSIYEVNING MATNSHUNOSLIK FAOLIYATI VA IKKI QO‘LYOZUVI XUSUSIDA**

*Otabek JO‘RABOYEV*

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,*

*O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat*

*adabiyot muzeyi direktor o‘rinbosari*

*[atabekrj@gmail.com](mailto:atabekrj@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek matnshunosi va olimi Porso Shamsiyevning matnshunoslik faoliyati haqida so‘z boradi. Olimning ilmiy-tanqidiy matn tuzish,



qo‘lyozma manbalar bilan ishlash borasidagi kuzatishlari tahlil qilinadi. Olimning ikkita muhim avtografi ham tilga olinadi.

#### **Резюме:**

В статье речь идет о текстологической деятельности узбекского текстолога и навоиведа Порсо Шамсиева. Анализируются наблюдения ученого над составлением научно-критического текста и работой с рукописными источниками. Также упоминается о двух важных автографах ученого.

#### **Abstract:**

The article deals with the textual activity of the Uzbek textual critic and scholar Porso Shamsiev. The scientist's observations on the compilation of a scientific-critical text and work with handwritten sources are analyzed. It also mentions two autographs of the scientist.

O‘zbek va jahon navoiyshunoslik tarixida yetuk matnshunos olim Porsoxon Shamsiyevning (1897-1973) o‘rni sezilarli darajada kattadir. Domlaning faoliyati serqirra – ham pedagoglik, ham darsliklar-u xrestomatiyalar muallifi, ham lug‘atshunoslik, ham mumtoz adabiyot tarixi bilimdonligi. Ushbularga qaramay, P.Shamsiev ilmiy faoliyatining markazida, shubhasiz, Alisher Navoiy “Xamsa” asari qo‘lyozmalari yuzasidan atroflicha tadqiqat qilish va uning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish turadi.

Aytish zarurki, olim hayotining bosh g‘oyasi sifatida muazzam “Xamsa”ning eng sahih matnini yaratish va XX asr kitobxonini uchun taqdim etish turgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayrim jihatlarga diqqat etsak.

Porso Shamsiyev 1956-yilda “Xamsa”ning 4-dostoni “Sab‘ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matnini amalga oshirgan. Oradan yetti yil o‘tgandan keyin (1963-yil) “Farhod va Shirin”ning ilmiy-tanqidiy matnini, “Hayratul-abror” dostonining tanqidiy matni nashrini esa 1970-yilda chop ettirdi. Har uch doston ilmiy-tanqidiy matni yuzaga chiqishi uchun yetti yildan 21 yil vaqt ketgan.

Ya'ni, kitobxonning qo'liga Alisher Navoiy uch dostonini sifatli ilmiy nashrini etib berishi uchun 21 yil sarflangan. Hozirgi kunimiz uchun bu biroz g'ayritabiiy tuyular. Lekin haqiqiy ilm uchun bu tom ma'noda asl etilgan fursat edi. Olim 21 yil davomida uch dostonning qo'lyozmalarini qidirib topib, ularning ustida sinchkovlik bilan tekstologik tadqiqlarni olib borib, qo'lyozmalarni o'zaro muqoyasa qilgan. Ana shundan so'ng, nashrga tayyorlash ishini amalga oshirgan. Birini ikkinchisiga qorishtirmagan holda, izchil ravishda mukammal nashrni yuzga keltirish ishini nihoyasiga yetkazgan.


Olim "Xamsa"ning yuzga yaqin qo'lyozmasini ko'rib chiqqan. Biroq ulardan ayrimlarinigina – ya'ni muhimlarini tanlab oladi. Har doston uchun 6 yoki 7 qo'lyozmani matn tuzish ishiga jalb etgan. Agar tanqidiy matnlarga diqqat etsak har sahifa ostida uch yoki to'rttadan izoh uchratamiz. Bu esa kamida besh yoki oltidan farq bor deganidir. Matnshunoslik amaliyotidan ma'lumki, 5-6 farq chiqishi uchun har sahifani ana shu karra qayta-qayta sinchkovlik bilan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida qo'lyozma bilan shug'ullanayotgan matnshunos uchun juda katta sabr-toqat, hamda jasorat zarur deganidir.

Anglashiladiki, Porsoxon domla yillar davomida juda ham ko'p zahmat chekib, ko'z nurini to'kib, hazrat Alisher Navoiy "Xamsa" asarining sahiih matnini yaratish va shu bilan birga uni o'quvchi qo'liga yetib borishi uchun ko'p mehnat qilgan.

Shuningdek, P.Shamsiyevning matnshunoslik borasidagi izlanishlarida Alisher Navoiy "Xamsa"si qo'lyozmalari va ularning matnini batafsil bilish bilan birga ulug' shoir adabiy uslubini o'rganib hamda o'zlashtirib borganiga ham guvoh bo'lish mumkin. Quyida bir baxtli tasodif tufayli ushbu satrlar muallifining shaxsiy kutubxonasidan joy olgan ikki qo'lyozma misolida olim faoliyati va shaxsiyatining ayrim jihatlariga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Bu ikki qo'lyozma P.Shamsiyevga tegishli qo'lyozuvi (avtograf, dastxat)lardir. Ulardan biri olim tomonidan 1968-yilning 20-fevral kuni hamkasbi, tilshunos Sobirjon Ibrohimovga qoldirilgan bildiruv-xat.

Qo‘lyozma oddiy, sarg‘ishrang bir varaq qog‘ozcha (kartochka qog‘ozi)ga qora qalam bilan nasta‘liq xatida yozilgan. Matn bir tekis, ravon. Qo‘lyozma o‘lchami: 9x12 sm.



Mazkur xatda shunday yozilgan:

“Mullo Sobirjon.

*Xizmati shariflarig‘a musharraf bo‘lub, andak muloqot qilmoq niyati bilan borgohi oliy dargohg‘a behad tayyi marohil qilib, besuubatlar bilan doxil bo‘lg‘animizda zoi bobarokot sutuda sifotni nomavjud ko‘rub, mahzuniyat dilni kuduratg‘a soldi. Nochor va noiloj bul maktubi muhabbat eslab sabt etildi.*

*Xulosai kalom shulki, hurufi mimni keltirildi. Va yana gap shulki, bizga o‘shal mullo Solih qori domulloning avtoreferotlari bisyor zarur erdi. Boisi malol bo‘lmsa shul risolani ertaga idoralarig‘a olib borsalar, degan umid bilan al-abdul zaiful-nahif*

*Porso deb bilursiz.*

20.2.68.”

Matndan anglashiladiki, P.Shamsiyev filologiya fanlari doktori, prof. S.Ibrohimovning oldiga kelgan. Ammo u kishini o‘rnida topolmay, shu xatni qoldirgan. Olim o‘zi bilan o‘sha paytda hammualliflikda tayyorlayotgan “Navoiy asarlari lug‘ati”ning “Mim harfi” qismini keltirgan.

Yana bir muhim tarafi shundaki, Porsoxon domlaning ushbu kichik xatida to'lasicha Navoiy nasrining uslubiga amal qilgani va uni saqlaganidir. Mumtoz maktub bitish asnosida yozilgan xatda olim Navoiy nasriy asarlaridagi murojaat usulini va adib til unsurlarini aks ettirishga uringan. Matndagi "...*borgohi oliy dargohg'a behad tayyi marohil qilib, besuubatlar bilan doxil bo'lg'animizda zoi bobarokot sutuda sifotni nomavjud ko'rub, mahzuniyat dilni kuduratg'a soldi. Nochor va noiloj bul maktubi muhabbat eslab sabt etildi...*" tarzidagi o'rin fikrimizni isbot etadi.

Yoki, imzo tariqasidagi nisba yozish: "*al-abdul zaiful-nahif Porso...*" Ya'ni, "zaif va ozg'in qul Porso". Bunday imzo qo'yish mumtoz adabiy asarlardagi kotiblar (yoki mualliflar) tomonidan ijro etiladi. Imkoni qadar o'zini ojiz va qusurli ko'rsatish bu kabi xat (bitik) namunalarida ko'p uchraydi.

Shu bilan bir qatorda olim o'z hamkasbiga nisbatan juda hurmat va tavoze' bayon qilayotgani, uni olim va inson sifatida o'ta qadrlashi seziladi. Hamda dissertatsiya avtorefererati so'ralayotgan "Devonu lug'otit-turk" asarining mutarjimi Solih Mutallibovga nisbatan ham baland ehtirom ayonlashadi.

Ikkinchi qo'lyozuvi 1927-yil Toshkentda chop etilgan A.A.Garriskiyning "Вновь приобретенная тюркская рукопись средне-азиатской государственной библиотеки" risolachasining titul sahifasiga yozilgandir.


Unda arab yozuvida qora qalam va safsar siyohida shunday yozilgan:

*"Bunda mundarijasi ko'rsatilgan kitob "Ravzatus-safo" 7-jildining Xorazmda Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasi."*

*"Bu risolachani birodarim Hodi Zarif Abduljamil kotib shaxsiyatini aniqlash va topish uchun taqdim etgan edi."*

*Haqiqatan mana shu narsa orqali bu masala hal bo'ldiki, men u kishining bu ajoyib yordamini o'z vaqtida izhor eta olmadim. Rahmat birodarim!*

*Porso."*



Qo‘lyozmadan bilinishicha, ushbu risolacha atoqli folklorshunos olim Hodi Zarif tomonidan P.Shamsiyevga taqdim etilgan. Shu tufayli olim Abduljamil kotib shaxsiyatiga oid ayrim jihatlarni aniqlagan. Risolacha matnida ham bir necha o‘rinlarda Porsoxon domlaning bunga doir belgilari mavjud. Biroq, ushbu “ajoyib yordam” uchun H.Zarifga o‘z vaqtida P.Shamsiyev rahmat izhor qilolmaganidan afsus chekkani ham aytilgan. Demak, ushbu siyohdagi yozuv H. Zarif vafotidan so‘ng, 1972- yil bitilgan. Sahifa yuqorirog‘idagi qalamdagi bitik esa avvalroq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keltirilgan har ikki qo‘lyozuvi ham P.Shamsiyev hayoti va faoliyatidagi kichik bo‘lsa-da muhim nuqtalarni yoritishga xizmat qiladi. Bir qaraganda juda oddiy tuyulgan bu kabi detallar P.Shamsiyev kabi katta olimlarning ham tadqiqotchilik, ham insoniylik qiyofasini yanada aniqroq kashf etishimizda ahamiyat kasb etadi.

**“BOBURNOMA” NING P. SHAMSIYEV VA S.MIRZAYEV  
TOMONIDAN TAYYORLANGAN NASHRI**

*Qodirjon ERGASHEV,*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori*

*instituti katta ilmiy xodimi,*

*filologiya fanlari nomzodi*

O‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari, dunyo memuar adabiyotining durdonasi bo‘lgan “Boburnoma”ni tadqiq etish, uni turli aspektlarda o‘rganish bo‘yicha adabiyotshunos olimlar tomonidan katta ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida asarning matniga oid tadqiqotlar hamda “Boburnoma” nashrlari alohida ahamiyatga molik. Ushbu nodir obida birinchi marta rus turkologi N.I.Ilminskiy tomonidan Qozon shahrida nashr etilgan (Qozon universiteti bosmaxonasi, 1857 yil). Nashr XVII asrda ko‘chirilgan va fanda keyinchalik “Boburnoma”ning Qozon nusxasi deb atalib ketgan, aslida Buxoroda topilgan qo‘lyozma asosida amalga oshirilgan. N.I.Ilminskiy kitobga qisqacha so‘zboshi yozgan va unda nashr prinsiplarini bayon qilib, ko‘rsatkichlar va izohlar bilan ta‘minlagan. Asarning ikkinchi nashri ingliz sharqshunosi A.S.Beverij tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur olim “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan qo‘lyozmasining faksimilesini sinkografiya usulida chop ettirgan (London, 1905-yil). Nashrga so‘zboshi, kishi ismlari, urug‘-qabila nomlari (transliterasiyasiz) ilova qilingan. Ilminskiy va Beverij nashrlari “Boburnoma”ning o‘rganilishi, tadqiq va targ‘ib etilishida muhim rol o‘ynashi bilan bir qatorda asarning keyingi nashrlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

1948-49- yillarda O‘zbekistonda “Boburnoma” kirill grafikasiga asoslangan o‘zbek yozuvida nashr qilindi.<sup>1</sup> Nashr ko‘rsatkichlar, lug‘at, izohlar

---

<sup>1</sup>Zahiriddin Muhammad Bobir. Boburnoma, 1-2 qism. Toshkent, Ўздавнашр, 1948-1949. Nashrga tayёрловчилар П.Шамсиев,С.Мирзаев.

bilan ta'minlangan, shuningdek, unda asardagi forscha jumlar tarjimalari berilgan. 1960-yilda mazkur nashr qayta chop etildi.<sup>12</sup>

“Boburnoma”ning Porso Shamsiyev va S.Mirzayev tomonidan tayyorlangan ushbu nashri alohida e'tiborga molik. Buning sababi unda birinchi marta asar matnini mukammallashtirish va to'ldirishga, matndagi xatolar va kamchiliklarni bartaraf qilishga urinilganidadir. Shu maqsadda nashrga tayyorlovchilar Ilminskiy bosmasi bilan Beverij bosmasini solishtirib, ularning birida tushib qolgan parchalarni boshqasidan olib to'ldirib borganlar, shuningdek, matndagi boshqa farqlarni, jumladan, so'zlar va iboralar turlicha berilgan o'rinlarni ham aniqlab, har bir bet ostidagi izohlarda qayd etganlar. Bu haqida P.Shamsiyev “Nashr haqida” maqolasida shunday yozadi: “Ilgarigi nashri kabi bu nashrga ham yuqorida zikr etilgan London va Qozon bosma nusxalari asos qilib olindi Shu ikkala nusxa qaytadan taqqoslanib, ikkisiga ham tanqidiy qaraldi. Birisini birisi to'ldirish yo'li bilan tuzilgan mazkur tekstni anchagina mukammallashtirish desa bo'ladi. Nusxalarda ma'no jihatidan farq qiladigan so'zlar kelganda bundaylarning farq va variantlari bet ostida ko'rsatila borilgan”.<sup>3</sup> Bunday farqlar esa anchaginani tashkil etadi va mana shuning o'zi ham nashrga tayyorlovchilarning katta mehnat qilganidan dalolat beradi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, nashrga tayyorlovchilar amalga oshirgan ish “Boburnoma”matnini mukammallashtirish, undagi kamchiliklarni bartaraf qilish bilan bir qatorda asarda berilgan ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Masalan, Bobur 1525-yil voqealari bayonida Hindiston podshohi Sulton Ibrohim ustidan g'alaba qozonganidan so'ng uning odamlariga inoyat va shafqat ko'rsatgani haqida yozadi. Bu ma'lumot har ikki bosmada mavjud, lekin London bosmasida mazkur shafqat va inoyatning konkret nimada namoyon bo'lganini ko'rsatuvchi muhim bir ibora – “Beklariga ham har qaysig'a parganalar berildi” degan so'zlar tushib qolgan. Nashrga tayyorlovchilar uni boshqa nushadan olib, matnni to'ldirganlar va shu tariqa

---

<sup>2</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома. Т., 1960.

<sup>3</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. “Бобирнома”, Тошкент, 1960.Б.55-56.

“Boburnoma” muallifi bergan ma’lumot nashrda o‘zining to‘liq shaklida, aksliyatdagi tarzida keltirilishi ta’minlangan.

“Boburnoma”ning mazkur qismidan Hindistonda fasllar, oylar, hafta kunlari, vaqt birliklari va ularning nomlanishi haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan. Jumladan, hafta kunlari haqida Bobur shunday yozgan: “Kunlarga ham ot qo‘yubturlar: shanba – (sonichar); yakshanba – (aytvar); dushanba – (sumvar); seshanba – (mongalvar); chahorshanba – (budvor); panjshanba – (brispator); odina – (sukrvor)”. Bu parcha Qozon bosmasida tushib qolgan. Nashrga tayyorlovchilar uni London bosmasidan olib, matnni to‘ldirganlar. 1505-1506-yil voqealari bayoni qavs ichida berilgan quyidagi parcha bilan to‘ldirilgan: “(Mirzoning (Sulton Husaynning) o‘n to‘rt ming yakka yigiti bor ekandur va qirq ming yasoqliq yigitlari g‘ul ekandur. Va yasoqliqqa taalluq ishlar xandaq to‘ldirmoqu qozmoq va yo‘l yasamoq va o‘tun, samon xossaga yetkurmoqtur. Va har biriga sakson jerib (yer) berurlar: mundin qirq tanobni mazru‘ qilib hosili xud bari o‘zlari tasarruf qilurlar va yaxshilar alarning ulufasig‘a hisob qilurlar va qolg‘on qirq tanobdin ortuq eksalar mol berurlar)”. Nashrga tayyorlovchilarning yozishlaricha, bu parcha London bosmasida ham, Qozon bosmasida ham mavjud emas. Ular tomonidan berilgan izohda parchaning SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlangan F-685 raqamlik qo‘lyozmadan olingani qayd etilgan.<sup>1</sup>

Nashrda London bosmasida ham, Qozon bosmasida ham ayrim o‘rinlarda Bobur bergan ma’lumotlarning fors tilida qayd qilingani aytib o‘tilgan va asliyat varianti tiklanib, ushbu parchalarning o‘zbekcha originali berilgan. Bunday holat “Boburnoma”ning 1494-1495 hamda 1526-yil voqealari bayon qilingan qismida kuzatiladi. 1526-yil voqealarida Bobur shunday yozadi: “Firuzxon va Shayx Boyazid va Mahmudxon va Qozi Jiyo qulluqqa keldilar. Bularni ham muddaolaridin ortuqroq rioyat va shafqatlar qilib, Firuzxonga Junpurdin bir kururu qirq olti laku besh ming tanga; Shayx Boyazidqa Uddin bir kururu to‘qson laku o‘ttuz besh ming tanga va Qozi Jiyog‘a Jo‘npurdin yigirma lak inoyat

---

<sup>1</sup> Ўша нашр. Б.224.



bo'ldi". London bosmasida mazkur parchada ko'rsatilgan tangalar miqdori forscha berilgan va nashrga tayyorlovchilar parchaning bu variantini emas, Qozon bosmasidagi o'zbekcha asliyatini berganlar. Asarning shu qismida Boburning beklariga va yigitlariga qilgan in'omlari haqida ma'lumot berilgan. London bosmasida bu ma'lumotlar ham forsiy tilda keltirilgan. Nashrda bu o'rinda ham ushbu parchaning Qozon bosmasidagi varianti berilgan va u quyidagichadir: "To'pchoq ot egari bila; kamar, shamshiri murassa' ikki qabza; xanjari murassa' yigirma besh qabza; qatora murassa' o'n olti qabza; jamdarai murassa' ikki qabza, pichooqband va bori oltun qabza; chahorqab to'rt to'p, saqarlot chakman yigirma sekkiz to'p".

1494-1495-yillar voqealarida Ibrohim soruning isyon ko'targani va Samarqand hukmdori Boysung'ur mirzo otiga xutba o'qitgani (ya'ni, o'zini Boysung'ur mirzoning tobe'si deb e'lon qilgani) va bunga javoban Boburning Ibrohimga qarshi qo'shin tortib, Isfarani qamal qilgani bayon etilgan. Ilminskiy nashrida ana shu qismdagi bir parcha forscha berilgan. Biz so'z yuritayotgan nashrda parchaning asliyat matni Beverij nashri asosida quyidagicha keltirilgan: "Andoqkim o'lukning kasratidin uch yerda xirgohni buyutkabdurlar.

Bu fursatda Ibrohim sorukim, minglig' elidin erdi, otamning oldida kichiklikdin xizmatlar qilib, beklik martabasig'a etib erdi, Isfara qo'rg'onig'a kirib, Boysung'ur mirzoning otig'a xutba o'qub, muxolafat maqomida bo'ldi. Sha'bon oyi Ibrohim soruning fitnasining daf'ig'a azimat qilib, cherik otlanildi. Ushbu oyning oyog'ida Isfarani qabab tushtuk. Ul kuni yigitlar sho'xluq qilib, etgan bila-o'q qo'rg'onining toshida yangi tom qo'porib, soladurg'on qo'rg'onni oldilar. Sayid Qosim eshik oqa bu kun borchadin yaxshiroq yurub, o'zub qilich tegurdi. Muhammad Do'st tag'oyi ham qilich tegurdi, vale bahodir ulushini Sayid Qosim oldi. Bahodurluq ulushi mo'g'ulda qadimiy rasmdur. Har to'y va osh bo'lg'onda har kimki eldin o'zub, qilich tegurgon bo'lsa, ul ulushni ul olur. Shoxruxiyada borib tag'oyim sulton Mahmudxonni ko'ruganda bahodurliq ulushini Sayid Qosim oldi. Avvalg'i kun urushda Xudoyberdi atkamga taxsh o'qi tegib o'ldi. Chun yaroqsiz urush solilib edi, ba'zi yigit-yalang zoe' bo'lub, xeyli

kishi yaraliq bo‘ldi. Ibrohim soruning qoshida taxshandoz bor edi, bisyor yaxshi otar edi. Oncha taxshandoz ko‘rulmaydur erdi. Aksar elni ul yaralig‘ qildi. Qo‘rg‘on fathidin so‘ng mening qoshimda bo‘lur erdi”.<sup>1</sup>

Mana shu o‘rinda nashrga tayyorlovchilarning ishga nechog‘lik mas’uliyat bilan yondashganliklari, sidqidildan mehnat qilganliklari yana bir bor ko‘rinadi. Ular parchaning o‘zbekcha matnini berish bilan cheklanishlari mumkin edi, lekin bunday qilmaganlar, parchaning Qozon bosmasidagi forscha variantini ham bet ostida izohda keltirganlar. Buning sababi shundaki, parchaning o‘zbekcha va forscha matnlari orasida muayyan farqlar bor va nashrga tayyorlovchilar bu ham nashrda aks ettirilishi lozim, deb hisoblaganlar.

Forscha parchaning tarjimasini: “O‘liklarning ko‘pligidan chodirni to‘rt erga ko‘chirdilar. Shu kunlarda Ibrohim soru otamning xizmatida bo‘lib, amirlik martabasiga etgan edi. Bu kunlarda bir gunohi sababli quvg‘in bo‘lib, Isfara qal‘asiga kirdi va Boysung‘ur mirzo nomiga xutba o‘qib, dushmanlikni boshladi. Sha‘bon oyida uning fitnasini qaytarish uchun lashkar otlandi va oxir shu Isfaraga jo‘nadi. O‘sha kuni yoshlar sho‘xlik qilib, qal‘aga etish bilan tashqaridagi yangi solinayotgan qal‘ani oldilar. Shu kun hammadan ortiqroq... Tanbal ham Muhammad Do‘st tag‘oyi kabi qilich... Mo‘g‘ul ulusida qadimdan rasm bo‘lib kelgandirki, (ma‘rakada) xalq orasida yolg‘iz chiqib dushmanga qilich tortsa, bahodirlik ulushini beradilar. Shu jihatdan bahodirlik ulushi unga berilgan. Avvalgi kuni atkam Xudoyberdiga o‘q tegib o‘ldi. So‘ng qurolsiz (jibasiz) urush boshlangan edi. Ba‘zi yigitlar talaf bo‘lib, ko‘pisi yarador bo‘ldi. Ibrohim soru huzurida bir mergan bor edi, u ko‘p kishilarni yarador qildi. Qal‘a fathidan so‘ng u mergan mening oldimda turar edi”.<sup>2</sup>

O‘zbekcha variantda chodirning uch yerga ko‘chirilgani aytilgan. Forsiydagi parchada uning to‘rt erga ko‘chirilgani haqida yoziladi. Asliyatda Ibrohim soruning kichiklikdan Boburning otasiga xizmat qilib bekklik martabasiga etgani va keyinchalik (“Boburnoma”da “so‘ngralar” deyilgan) bir gunohi uchun

---

<sup>1</sup> Ўша нашр.Б.88-89.

<sup>2</sup>Ўша ерда.

e'tibordan qolgani qayd qilingan bo'lsa, forscha parchada uning shu kunlarda bir gunohi uchun quvg'in bo'lgani aytiladi. Bobur Isfara uchun bo'lgan jangda Sayid Qosim eshik og'aning barchadan oldinga o'tib, dushmanga qilich tekizgani va bahodirlik ulushini olgani haqida yozgan. Forscha parchada bu ma'lumot yo'q, Sayid Qosimning nomi umuman tilga olinmagan. Shuningdek, parchada Boburning Shoxruxiyada tog'asi Sulton Mahmudxon bilan ko'rishgani haqidagi ma'lumot ham mavjud emas. Ko'rinadiki, ikki variant orasidagi farqlar anchagina. Shu nuqtayi nazardan nashrga tayyorlovchilarning forscha parcha tarjimasini bet ostidagi izohda berganliklari o'rinli bo'lgan.

Nashrga tayyorlovchilarning katta mehnatlarini, nashrning ahamiyatini e'tirof etish bilan bir paytda uning "Boburnoma" matnini mukammallashtirish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lganini, binobarin nashrda xato va kamchiliklar etarli ekanini alohida qayd etish zarur. Buni P.Shamsiyevning o'zlari ham e'tirof etganlar. Domlaning "Nashr haqida" maqolasida bu to'g'rida shunday deyiladi: "Ammo ilgari ham aytganimizdek, qilingan shu ishlarga qaramasdan, hali ham ishda birmuncha nuqsonlar mavjudligi aniq. Jumladan ayrim so'zlar, ayniqsa, Afg'oniston va Hindistonga tegishli bo'lgan jug'rofiy nomlar, kishi ismlari, o'simlik, hayvonot va boshqa xil atamalar transkripsiyasini batamom to'g'ri va aniq deb bo'lmaydi. Ish prosessida masalaning eng qiyin tomoni ham shu bo'ldi. Bulardan boshqa yana birmuncha tekstologik kamchiliklar bo'lishi mumkin. "Boburnoma"ning puxta tayyorlangan tanqidiy matni maydonga chiqmaguncha va "Boburnoma"da qo'llangan O'rta Osiyo, Afg'oniston hamda Hindistonga oid barcha tarixiy nomlarning aniq transkripsiyasi ishlanmaguncha bu asarning nashrlarida noaniqlik va nuqsonlar yuz berishi tabiiydir".<sup>1</sup>

Ko'rib turganimizdek, P.Shamsiyev "Boburnoma"ning puxta tayyorlangan tanqidiy matni yaratilmaguncha nashrlardagi xatoliklar va kamchiliklarga barham berish mumkin emasligini ta'kidlagan. Mana, domla aytgan ish ham amalga oshdi, asarning tanqidiy matni yapon olimi Eyji Mano tomonidan yaratildi. P.Shamsiyevning tanqidiy matnning yaratilishi nashrlardagi

---

<sup>1</sup> Ўша нашр. Б.56.

nuqsonlar va xatolarga baham berishiga bogʻlagan umidi oqlandimi? Afsuski, yoʻq. “Boburnoma”ning Sayidbek Hasanov tomonidan Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev va Eyji Mano nashrlari asosida qayta tayyorlangan nashri buning yaqqol misolidir.<sup>1</sup> Albatta, buning oʻziga yarasha sabablari bor va bu oʻrinda ulardan bittasiga toʻxtalib oʻtamiz. Maʼlumki, ilmiy-tanqidiy matn asar qaysi yozuvda yaratilgan boʻlsa, oʻsha yozuvda tuziladi. Hozirgi paytda bizdagi barcha nashrlar, xoh ommaviy, xoh ilmiy boʻlsin, joriy yozuvda amalga oshiriladi. Bunday sharoitda mumtoz adabiyot namunalarining ilmiy-tanqidiy matni hozirgi nashrlar uchun asos boʻlib xizmat qilishdan iborat oʻz funksiyasini bajara olmaydi, zero, u eski yozuvda(arab grafikasiga asoslangan yozuvda) yaratiladi. Bu yozuvda esa bitta soʻzni turlicha oʻqish mumkin. Oqibatda joriy yozuvdagi nashrlarda xatolar, xilma-xilliklar kelib chiqadi. Mumtoz adabiyotimiz asarlari nashrlarida uchraydigan xatolarning eng katta qismi aynan shu omil bilan, yaʼni, eski oʻzbek yozuvidagi soʻzlarning notoʻgʻri oʻqilishi bilan bogʻliqdir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, oʻtmish adabiyotimiz namunalarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda asliyat yozuvidagi asosiy matn bilan parallel ravishda joriy yozuvdagi matnning ham tuzilishi shart qilib qoʻyilishi lozim. Ana shu yoʻsinda, puxta tuzilgan tanqidiy matngina bugungi nashrlar uchun asos boʻlib xizmat qila oladi. Biz oʻzimizning bu toʻgʻridagi mulohazalarimizni bundan avval ham, aniqrogʻi, oʻn ikki yil ilgari matbuot orqali oʻquvchilar diqqatiga havola etgan edik.<sup>2</sup> Bu ishimiz natijasiz qolmadi va keyingi yillarda yaratilgan ayrim ilmiy-tanqidiy nashrlar ana shu prinsip asosida tuzilganini koʻrishimiz mumkin. Buni “Boburnoma”ning tanqidiy matnini yaratishga ham tadbiiq etish maqsadga muvofiq boʻladi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan yana bir xulosa shuki, “Boburnoma” matni tadqiqi, uning mukammal, kamchiliklar va xatolardan xoli nashrini yaratish ustidagi ishlar davom ettirilishi zarur.

---

<sup>1</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”. Т., 2002. П.Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи Сайидбек Ҳасанов.

<sup>2</sup> Матншунослик давр талаблари даражасидами?(давра суҳбати) / Ўзбекистон адабиёти ва санъати.2010 йил, 2 июл.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома, 1-2 қисм. Тошкент, Ўздавнашр, 1948-1949. Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. Т., 1960.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Т., 2002. П.Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи Сайидбек Ҳасанов.
4. Матншунослик давр талаблари даражасидами?(давра суҳбати) / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010 йил, 2 июл.

## **PORSO SHAMSIYEVNING “NAVOIY ASARLARI LUG‘ATI”**

### **XUSUSIDA**

*Sayfiddin RAFIDDINOV*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari nomzodi*

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyevning ilmiy merosi rang barang va ko‘p qirralidir. Ustozning Navoiy asarlarining tanqidiy matnini tuzishda, tarjimachilik va adabiy aloqalarga doir juda salmoqli ishlarni amalga oshirganligi ma‘lum. Ayniqsa, u kishi O‘zbekistonda navoiyshunoslik va matnshunoslikning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Shu bilan birga Porso Shamsiyev lug‘atshunos olim sifatida ham e‘tirof etiladi.

Lug‘atshunos olimlarning ta’kidlashicha, Navoiy asarlari tili XVI asrdanoq o‘rganib kelingan va ularga turli yo‘nalishdagi lug‘at kitoblari tuzilgan. Jumladan, Toli Imoniyning fors tilidagi «Badae’ al-lug‘at», muallifi hozircha aniqlanmagan XVI asrda Turkiyada yaratilgan «Abushqa», Navoiyning “Chordevon”i asosidagi «Lug‘ati Navoiy», «Lug‘ati Amir Navoiy», «Xamsa bo

halli lug‘at», «Dar bayoni lug‘ati Navoiy», «Halli lug‘ati Xamsayi Navoiy», XVIII asrda Mirza Mahdixonning «Sanglox» asari eng so‘nggi lug‘atlardan biri shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” kitoblarini misol qilib keltirish mumkin<sup>1</sup>. Negadir yirik lug‘atshunos olimlarimiz E.Fozilov ham Porso Shamsiyev va Sobir Ibrohimovlar ham Xevada yashab ijod etgan Muhammad Rizobek Xoksoning ikki qismdan iborat “Muntaxab ul-lug‘ot” hamda “Zubd ul-lug‘ot” asarlarini tilga olishmagan. Bu asarni so‘zboshi va izohlari bilan Mas‘udxon Ismoilov va Humoyunxon Ismoilovlar nashrga tayyorlab, 2017-yil “Akademnashr”da chop ettirishdi.

Mazkur lug‘atlardan ba‘zilari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkshunos olimlarning ilmiy tekshirishlariga asos bo‘la boshladi. Buning natijasida: H.Vamberi (“Abushqa”, Budapesht, 1862), V.V.Vilyaminov-Zernov (“Abushqa”, Sankt-Peterburg, 1868), Fazlullaxon (“Chig‘atoycha-forscha lug‘at”, Kalkutta, 1825), Shayx Sulaymon Buxoriy (“Chig‘atoycha-turkiy usmoniy lug‘at” Istanbul, 1882), Ignas Kunash (“Chig‘atoycha-nemischa lug‘at”, Budapesht, 1942), Dj.Kloson (“Sanglox”, London, 1960), Karl Menges (“Mirza Mexdixon”, Mayns, 1956), A.K.Borovkov (“Badae’ al-lug‘at”, M. - L., 1961) kabi olimlar mazkur yodgorliklarni chop etishgan<sup>2</sup>.

Yana shuni ta’kidlashimiz kerakki, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, N.Mahmudov, M.Raxmatullayeva, X.Doniyorov, B.Bafojev, I.Nosirov, Z.Hamidov, N.Husanov kabi qator taniqli tilshunos olimlarimiz Navoiy asarlarining til xususiyatlarini turli yo‘nalishlarda o‘rganib, ulug‘ shoirimiz asarlaridagi so‘zlarning lug‘aviy, nutqiy, lisoniy hatto badiiy xususiyatlarini imkon darajada ochib berishgan. Bu olimlarimizning tadqiqotlari ham qaysidir ma’noda Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atlarini tuzishda yaqindan yordam bergan desak xato qilmaymiz. Zotan tilshunoslik va lug‘atshunoslik bir-birini taqozo qiladigan ilm sohalaridir.

---

<sup>1</sup> Қаранг: Э. Фозилов. Алишер Навоий асарлари луғати. - Т.: «Niso Poligraf», 2013. 3- б; П. Шамсиев, С. Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Т.: 1972. “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 7-б.

<sup>2</sup> Қаранг: Э. Фозилов. Мазкур асар, мазкур саҳифа.

Bugungi kunda olimlarimiz tarafidan yaratilgan bir jildlik “Navoiy asarlari lug‘ati”<sup>1</sup>, to‘rt jildlik Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”<sup>2</sup> va besh jildga mo‘ljallangan hozircha ikki jildi nashr bo‘lgan “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”<sup>3</sup>, E.Fozilovning uch jildga mo‘ljallangan “Navoiy asarlari lug‘ati”ning birinchi jildi<sup>4</sup> hozircha mutaxassis olimlarimiz va shoir ijodining muxlislari uchun asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qilmoqda.

Porso Shamsiyev va Sobirjon Ibrohimovlar tayyorlagan lug‘atga Sobirjon Ibrohimov salmoqli so‘zboshi yozib, lug‘atning yozilish davri va dunyoga kelish sabablariga obdon to‘xtalgan. U kishi avvalo turk (o‘zbek) adabiyotining qadimgi davridan Navoiy davrigacha bo‘lgan jarayoniga umumiy obzor berib, XV asrgacha, ya’ni Alisher Navoiy o‘zining boy ijodi bilan adabiyot jabhasiga qadam qo‘yganiga qadar turkiy (o‘zbekcha) adabiy tilga e’tibor juda kam, turkiy adabiy tilning ijtimoiy funksiyasi (xizmat doirasi) g‘oyat cheklangan, adabiy janrlar tor bir doirada bo‘lgani va nihoyat ulug‘ mutafakkir shoirning tarix sahnasiga chiqib, turk tili va adabiyotini eng yuqori cho‘qqiga chiqargani, adabiy-ijtimoiy doirasi kengaygani, Davlat va hokimiyat turkiy xalqlar qo‘liga o‘tishi bilan turkiy madaniyat, adabiyot jonlana borgani haqida tuxtaladi va yana shunday deydi: “Xurosonda va Movarounnahrda turkiy tilda asar yozish cheklangan, ko‘proq forsiy tilda yozish odat bo‘lib qolgani uchun ham turkiy adabiy til uncha rivojlanmagan edi. Bu tilni himoya qilish, rivojlantirish, boyitish lozim edi. Bu ulug‘vor, ammo og‘ir vazifani anglagan va turkiy adabiy til uchun kurash bayrog‘ini baland ko‘taribmaydonga chiqqan birdan-bir pahlavon zot – ulug‘ Alisher Navoiy bo‘ldi. U bu tilda ajoyib yuksak badiiy va ilmiy asarlar, nozik hislar bilan sug‘orilgan she’rlar yaratdi, bu til cheksiz qudratga egaligini, uning grammatik qurilishi mustahkam, so‘z boyligi va stilistik imkoniyatlari cheksizligini isbotladi”<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> П.Шамсиев, С. Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Мазкур асар.

<sup>2</sup> Аlisher Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. Т.:“Фан”. 1983-1985.

<sup>3</sup> Б.Юсуф. Аlisher Навоий асарларининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1-2-жилдлар. Т.: 2019-2022.

<sup>4</sup> Э.Фозилов. Мазкур асар.

<sup>5</sup> П.Шамсиев, С. Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Мазкур асар. 6-б.

Darhaqiqat, Navoiyning buyuk xizmatlari evaziga turkiy adabiy tilning grammatik, fonetik tomonlari, leksikasi, uslubiyati va bularning normalari yanada puxtalashadi, takomillashadi, tilning nasr va nazmdagi beqiyos imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Xullas, arab va fors tillarini mukammal bilgan Navoiyning buyuk asarlari tarix sahnasida hamisha dunyo xalqlarining e'tiborini tortdi va na faqat o'zbek ulusining balki butun turkiy xalqlarning iftixoriga aylanib keldi.

Ma'lumki, ayrim istisno holatarni inobatga olmaganda Sho'rolar davrida ham navoiyshunoslik rivojlandi.

S.Ibrohimov so'zboshida yozishicha, 1939–1941-yillarda Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishini nishonlashga hozirlik ishlari boshlangan. Navoiy va zamondoshlarining asarlari ko'p nusxalarda nashr etilib, ulug' mutafakkirning hayoti va ijodi, til xususiyatlarini o'rganishga kirishilgan. Shu bois, o'zbek tilida Navoiy asarlari yuzasidan lug'at tuzishga ehtiyoj sezilgan. Shuning uchun Navoiyning goh u, goh bu asarining orqa sahifalariga qisqa-qisqa lug'atchalar ilova etila boshlangan.

1939-yil iyulda Moskvada Navoiy yubileyiga tayyorgarlik ko'rish ishlariga bag'ishlab, ilmiy sessiya o'tkaziladi. Uning qarorlarida Navoiy asarlari yuzasidan 4 jildli izohli lug'at tuzish zarurligi aytiladi va bu ish O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli sobiq A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutiga, hozirgi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti rahbariyatiga topshiriladi. Mas'ul idora rahbariyati Navoiy asarlari yuzasidan mukammal izohli lug'at tuzish uchun bir ilmiy jamoni tashkil qiladi. Unda bu ishning rahbari sifatida sharqshunos olim A.K.Borovkov, ilmiy maslahatchilar - navoiyshunos, shoir Mirza Abdullo Bokiy, yozuvchi Sadridin Ayniylar, lug'atni tuzuvchilar jamoasi navoiyshunos shoirlar – Zokir Habibiy, M.Is'hoqov (Mahjur), A.Azizov (Anisiy), Nabijon Chustiy, arab va fors tillariga mohir A.Mutallibov, S.Mutallibov, Sodiq Mirzayev hamda bir necha laborant xodimlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi munosabati bilan jamoa tarqatib yuboriladi. Bu jamoa Navoiy asarlarining, "Arba'in", "Nazm ul-javohir" va



“Devoni Foni”dan boshqa hamma asarlarini qarab chiqib, 200 000 ga yaqin soʻz va shu soʻz ishlatilgan kontekstlarni kartochkalarga koʻchirib, “Navoiy lugʻati” kartotekasini yaratgan va shu kartoteka asosida “Navoiy tili lugʻati”ning 70 bosma taboq hajmida I bir jildini tuzib, bosmaga tayyorlagan. Ammo ikkinchi jahon urushi boshlanishi sababli bosilmay qolib ketgan. Ikkinchi jahon urushidan soʻng Til va adabiyot instituti Navoiy asarlari yuzasidan lugʻat tuzish ishini yana kun tartibiga qoʻyadi va bu vaqtda ikki variantda lugʻat tuzish rejalashtiriladi. Birinchisi, Navoiy asarlariga qisqacha lugʻat tuzish boʻlsa, ikkinchisi koʻp jildli izohli lugʻat tuzish nazarda tutiladi.

Soʻzboshi muallifi Sobirjon Ibrohimov yozadiki, “Har ikki lugʻatni tuzishga ham Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan fan arbobi P.Shamsiyev va kamina jalb etilgan edik. Birinchi tip lugʻat 1953-yili “Oʻzbek mumtoz adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat” nomi ostida, ancha qisqartirib, oz tirajda nashr ettirilgan”<sup>1</sup>.

Keyinchalik Alisher Navoiy asarlarining keng kitobxonlarga moʻljallab chop etilgan 15 jildlik nashri asos qilib olinib, “Qisqa lugʻat” ga yozilgan taqriz va takliflarga binoan Alisher Navoiyning 525 yilligi toʻyi munosabati bilan harakat qilinib, “Navoiy asarlari lugʻati” maydonga kelgan.

Albatta bu lugʻat koʻp xususiyatlari bilan “qisqa lugʻat”dan farq qilgan. Mualliflar P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar “qisqa lugʻat” dagi barcha soʻzlarni keyingi lugʻatlariga kiritganlar hamda lugʻatning tayyorlanish tamoyillarini, oldingisidan ilmiy-uslubiy jihatdan farqlarini soʻzboshida koʻrsatib oʻtganlar.

S.Ibrohimovning taʼkidlashicha, “Qisqacha lugʻat” izohlarida bosh soʻz va birikmalar imlosida ketgan nuqson va kamchiliklar imkon boricha tuzatilgan va aniqliklar kiritilgandi. Soʻzlarga izoh berishda tushuntirish usulini kengroq qoʻllashga eʼtibor berilgan. Ushbu lugʻatning soʻz va iboralar boyligi “Qisqacha lugʻat”dagidan ancha koʻp boʻlib, bosh soʻzlar 12 500 ga yaqin, iboralar 8 000 dan ortiqdir. Lugʻat XV asr oʻzbek adabiy tilining normasini, ifoda etishdagi keng imkoniyatlarini aks ettiradi. Baʼzi soʻzlarning iboraviy imkoniyatlari kengligini

---

<sup>1</sup> Мазкур маҳба, 12-б.

hisobga olib, ularga yetarlicha e'tibor beriladi. Masalan "**ahl**" so'ziga – ega, sohib, tegishli degan ma'no berilgan. Matnda uning boshqa so'zlar bilan yonma-yon kelishini hisobga olib, **ahli adam, ahli ayyom, ahli ano, ahli g'ino, ahli uqul** kabi 53 ta misol keltirishadi va ma'nolarini yoritishadi. Ayrimlariga she'riy misollar ham berilgan.

"Navoiy asarlari lug'ati"da izohli lug'atlarga xos bo'lgan tartibga ko'ra, asosiy so'zlar so'z turkumlari bo'yicha tanlangan, joriy alifbo sirasi asosida o'rinlashtirilgan, har bir so'zga qisqacha, engil uslubda, oson tushuniladigan qilib izoh berilgan. Odatda, izohlar asosiy so'zning ma'nosini tushuntirish, tautologik va aralash usulda berilgan. Bu lug'atda uchta usuldan foydalanilgan:

I. **Tushuntirish usuli:** Masalan: SARXAT *f.-a.* Yangi husnixat mashq qiluvchi kishi uchun ko'rsatma qilib, muallim tomonidan yozib berilgan xat namunasi.

II. **Tautologik usul:** Bu so'zda bosh so'zning ma'nosi o'sha so'zning o'xshashlari, sinonimlarini keltirish yo'li bilan tushuntirilgan. Bitta misol: TAVR *a.* **1.** Surati hol, tarz, ravish, yo'sin, nav'; **2.** Odat, qiliq, ado, usul, tartib.

### III. **Aralash usul:**

TAANNI *a.* Astalik, sekinlik (tautologik); Biror ishda tezlik qilmay, sekin-asta va og'irlik bilan harakat qilish.

Ba'zan, bosh so'zga berilgan izohdan so'ng qo'shimcha tushuntirish, qo'shimcha ma'lumotlar ham berishga to'g'ri kelgan. Chunonchi:

TARJE' *a.* Qaytarish, takrorlash; **Tarje'band** – she'rda band takrorlanishi (bunda shoir vazni bir, qofiyasi turlicha bo'lgan bir necha band she'rning har bandi orasida ma'lum bir baytni takrorlab turadi; takrorlangan bayt har band oxiridagi bayt bilan bog'lanib borishi shartdir). Maqola muallifi Navoiy tilining so'z boyligi 20 mingdan ortiq. ekani, ularning hammasini mukammal to'plab, "Navoiy asarlari lug'ati"ni yaratish uchun bir necha kishilik jamoa bir qancha yil ishlashi lozimligini ham uqtirib, o'zlari tuzgan lug'atning navoiyxonlarning eng zaruriy talabini mumkin qadar qondirishini ko'zda tutganliklarini aytgan. Shu bois tuzgan lug'atlaridan Navoiy asarlaridagi hamma so'zlarni va ularning barcha

ma'no va ma'no nozikliklarini to'la-to'kis axtarishga o'rin yo'qligini alohida eslatib o'tgan. Tuzuvchilar lug'atni tuzishda Navoiy asarlaridagi eng diqqatga sazovor so'zlarni va u so'zlar ishlatilgan misollarni mumkin qadar e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilganlar. Lekin lug'atshunos olim E.Fozilovning fikriga ko'ra, "Navoiy asarlari lug'ati"da ulug' shoir asarlarida uchramaydigan so'zlar ham kirib qolgan ekan<sup>1</sup>.

Lug'atda Navoiy asarlarida uchraydigan turkiy leksika doirasidan xorijda bo'lgan va mazmunini anglash qiyin bo'lgan arabcha iboralarning ma'nosi ham berilgan. Hatto bunday iboralar, navoiyxonlarga engillik bo'lsin uchun bosh so'z qatorida berilib, ularga izoh berilgan. izoh beriladi. Chunonchi:

MAZOG' (Mozog' al-basar) a. Payg'ambarning ko'zini va o'zini madh etgan oyatning bosh so'zi (iqtibos)<sup>2</sup>. Ba'zan iboraning o'zi bosh so'z qilib olingan: KA-SH-SHAMSI NISFUN NAHOR **a**. Tush paytidagi quyoshday.

Lug'atda imlo masalasiga alohida diqqat qilingan. Navoiy davrida o'zbek yozuvi arab alifbosiga asoslanganligini hisobga olib, so'zlar arab imlosidagi ma'nosiga ko'ra joylashtirilgan. Masalan, ARZ (**ayn, ro, zod** harflari bilan) عرض **a**. **1**. Bayon, ma'lumot; biror narsaning eni, kengligi bo'lsa, ARZ (**alif, ro, zod** harflari bilan) ارض Eru zamin, er yuzi. AXAS اخس (**alif, xo, sod** harflari bilan) Xosroq, mosroq, ma'nosini bildirsa, AXAS اخس (**alif, xo, sin** harflari bilan) O'ta xasis deganidir.

Qolgan misollar ham shu yo'sinda berilgan.

Xullas, bu lug'at hozirga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan va keyingi tuzilgan lug'atlar uchun ham asos bo'lgan manbalardan biridir. So'zboshida S.Ibrohimov qayd qilganidek, bu lug'at Alisher Navoiy asarlari yuzasidan mukammalroq lug'at yaratishdagi birinchi tajribadir. U mushkul bir jarayonda va g'oyat qisqa bir vaqtda tuzilgan. Tuzuvchilar uni mukammal lug'at deb da'vo etmaganlaridek, nuqson va kamchiliklardan xoli deb ham hisoblamaydilar. Aslida

---

<sup>1</sup> Қаранг: Э. Фозилов. Мазкур манба, 3-б.

<sup>2</sup> “(Пайғамбарнинг) кўзи (ўнгу сўлга) оғгани ҳам йўк, ўз ҳаддидан ошгани ҳам йўк” (“Нажм” сўраси, 17-оят).

lug‘at birinchi tajribalardan bo‘lgani uchun unda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Bu haqda keyinroq tuxtalamiz.

Shuningdek bu lug‘atni Navoiy asarlari yuzasidan bundan ilgari tuzilib, dunyoga kelgan barcha lug‘atlardan ko‘ra eng boy va leksikografiya fanining qoidalariga asoslanganini da’vo qiladilar. Bu da’vo o‘z davrida ehtimol to‘g‘ri bo‘lgandir. Yaxshi bilamizki, keyinchalik E.Fozilov boshchiligida tuzilgan to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izoh lug‘ati”<sup>1</sup>, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Berdaq Yusuf boshchiligida yaratilgan besh jildlik “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” oldingi lug‘atlardan yanada mukammalligi bilan ajralib turadi.

Darhaqiqat, P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar o‘z davrida juda muhim va zarur lug‘atni yaratganlar. Hozirga qadar ushbu lug‘atdan mutaxassis va Navoiy ixlosmandlari foydalanishadi. Kamina ham ushbu lug‘atning qayta nashriga ehtiyoj borligini hisobga olib, nashrga tayyorladim va bugungi kunda u “Akademnashr”da chopga tayyorlanmoqda.

Shu o‘rinda men bir narsani aytib o‘tishim kerakki, lug‘atda ayrim juz‘iy kamchiliklar ham o‘tib ketgan. Masalan, Qur‘onda kelgan payg‘ambarlarga nisbatan afsonaviy deyilgan, **mozog‘** kabi oyatlardan keltirilgan iqtiboslarga yoki **tavhid** kabi diniy atamalarga berilgan ta‘riflar unchalik qoniqarli emas. Shuningdek, ayrim diniy jumlar tarjimasini ham maqsadga muvofiq emas. Masalan, “**Konallohu lam-yakun ma’ahu shay**” so‘zini mualliflar “ollo boru, ammo yo‘qday degan ma’noda”, deb tarjima qilishgan. Vaholanki jumlaning so‘zma so‘z tarjimasini: Alloh bor edi, U bilan birga boshqa narsa yo‘q edi, deganidir. Biz uni: “**Yolg‘iz Alloh bor edi, Undan boshqa narsa yo‘q edi**”<sup>2</sup>, deb tarjima qildik. Ehtimol yosh xodimlar o‘qigan bo‘lsa kerak ayrim misol tarzida keltirilgan jumlar ham noto‘g‘ri o‘qilgan. Masalan, “Nasoyim ul-

---

<sup>1</sup> Ўтган асирининг 70-йилларида Э.И.Фозилов рахбарлиги ва бевосита иштирокида Алишер Навоий асарларининг мукамал лугатини тузишга киришилган. Натижада 1982 йили 4 жилдик «Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати» яратилган ва 1983-1985 йилларда «Фан» нашриётида чоп этилган. Лугат иштирокчиларнинг меҳнатлари ва номлари ҳар бир жилда қайд қилинган.

<sup>2</sup> Сўзма сўз таржима: Аллоҳ бор эди, У билан бирга бошқа нарса йўқ эди. (Нашрга тайёрловчи)

muhabbat” dan keltirilgan “... ul Shayxi Raziddin alolo otasi bilan abnoyi amm ekandur”, jumlasidagi Raziddin alolo aslida bosh harflar bilan **Raziyuddin Ali Lolo** deb o‘qilishi kerak. Ba’zan izohlarda **zapas, normal poroshok, piyanista, moment, remont kabi** ruscha so‘zlar ham ishlatilgan. Ularni o‘zbekchalashtirishni ham o‘ylab ko‘rdik. Ba’zi lahjalarga xos so‘zlarni imlo qoidasiga muvofiq yozdik. Masalan, **ta’na – tuvvaga, muvoxaza, mahri mo’jal, egilik, choqin, o‘rgamchi** kabi so‘zlarni: ta’na – tavbaga, muoxaza, mahri mo’ajjal, egulik, chaqin, o‘rgimchak kabi imlo qoidalariga moslab yozdik. Arabcha va kirilda texnik o‘tib ketgan xato so‘zlarni to‘g‘riladik va hok.

Mazkur lug‘atni nashrga tayyorlash jarayonida yuqorida keltirganimiz kabi kamchiliklarni bartaraf etdik va S.Ibrohimov yozgan so‘zboshidan so‘ng lug‘atni nashrga tayyorlash jarayonidagi kuzatishlarimizni ham qayd qilib o‘tdik.

Shubhasiz, bu lug‘atdan Sharq xalqlarning qadimgi qo‘lyozmalarini, o‘qish va o‘rganishda foydalanib kelinadi. Lug‘at ilmiy xodimlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarining talabalariga mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy asarlarini mutolaa qilib, tushunishda yaqindan yordam beradi.

Xullas, yirik navoiyshunos, matnshunos va manbashunos olim P.Shamsiyevning lug‘atshunoslikdagi ilmiy faoliyati ham alohida e’tiborga loyiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Э. Фозилов. Алишер Навоий асарлари луғати. - Т.: «Niso Poligraf», 2013. 3- б; П. Шамсиев, С. Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Т.: 1972. “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 7-б.
2. П.Шамсиев, С. Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Мазкур асар.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. Т.:”Фан”. 1983-1985.
4. Б.Юсуф. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1-2-жилдлар. Т.: 2019-2022.

## “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIIY-TANQIDIY MATNI XUSUSIDA

*Sirdaryoxon O‘TANOVA,*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*

*katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi*

*e-mail: [utanova14@mail.ru](mailto:utanova14@mail.ru)*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada matnshunos olim Porso Shamsiyevning ilmiy tadqiqot ishi, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matni tuzish masalasida olib brogan ilmiy izlanishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** matn, nazariya, amaliyot, ilmiy tadqiqot, o‘zbek adabiyoti, xato, nuqson.

### **Аннотация**

В данной статье анализируется научно-исследовательская работа текстолога Порсо Шамсиева и Алишера Навои по составлению научно-критического текста «Сабаи Сайяр».

**Ключевые слова:** текст, теория, практика, исследование, узбекская литература, ошибка, дефект.

### **Annotation**

This article analyzes the research work of textologist Porso Shamsiyev, Alisher Navoi's scientific research on the compilation of the scientific-critical text of "Sab'ai Sayyar".

**Keywords:** text, theory, practice, research, Uzbek literature, error, defect.

Yirik matnshunos va manbashunos olim Porsoxon Shamsiyev domla XX asrning eng yirik shaxsiyatlaridan, teran nazariyotchi ham amaliyotchi olimlaridan biri bo‘lganini hozirgi davr o‘zbek adabiyotshunosligi tasdiqlab turibdi. Domlaning tarjimaiy holini ko‘zdan kechirsak, “Alisher Navoiy “Sab’ai

sayyor” dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida”<sup>1</sup> deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasini 55 yoshida tayyorlar ekan, ishga katta ilmiy tayyorgarlik bilan kirgani ma’lum bo’ladi. Zero, bolalik va o’smirlik chog’larida Buxorodagi nufuzli madrasalar ta’limini ko’rib, arab va fors tillarini puxta egallagani ilk hal qiluvchi omillardan bo’lgani haqiqat. Shuningdek, to’rtinchi asrning 50-yillariga qadar maktab va maorif, nashriyotchilik sohalaridagi faoliyati unga matnshunoslik bo’yicha dolzarb masalalarni o’z vaqtida va bexato ko’ra olishiga ko’mak bergani shubhasiz. Boz ustiga, Domla faoliyat ko’rsatgan Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti 50-yillardan boshlab klassik matnlarni tabdil qilib, nashr etish va keng ommani ham ma’naviy merosimizdan bahramand etishdek ezgu hamda mas’uliyatli vazifani o’z zimmasiga olgan va bu ishlar Hamid Sulaymon, Izzat Sulton, Solih Mutallibov, ... boshchiligidagi qator olimlar tomonidan jadallik bilan amalga oshirilayotgan edi. P.Shamsiyev domla ham ana shunday ijodiy iqlimga kelib qo’shilgach, matn, manba va nashr ishlari bilan bir qatorda lug’atchilikka ham astoydil kirishdi va to umrining so’nggiga qadar, ya’ni 1972-yilga qadar bu yo’nalishda salmoqli ishlarni amalga oshirishga erishdi.

Dissertant, avvalo, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish yo’lidagi bosh tamoyillarni belgilab olishni maqsad qilgan. Taassufki, dissertatsiyaning dastlabki o’n-o’n besh sahifasi sobiq sovet mafkurasi ta’siri ochiq ko’ringan, tadqiqot ishiga deyarli aloqasiz, ishning ilmiy qimmati oshishiga xizmat qilmaydigan fikr-mulohazalardan iborat: *“Sovet Ittifoqi qardoshlar oilasiga birlashgan sotsialistik millatlarning klassik yozuvchilari bizga qoldirgan adabiy-badiiy merosni hamma yerda marksistik ilmiy asoslarda tekshirish, o’rganish, umumiy sovet madaniyatimizning kuni sayin rivoj va ravnaqida foydalanish ob’yektiga aylanib ketdi”*<sup>2</sup>. Yaxshiki, keyingi sahifalarda matnshunoslik yo’nalishidagi tadqiqotlar konsepsiyasiga zid o’rinlar kuzatilmaydi.

---

<sup>1</sup> Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабаъи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. – Тошкент, 1952. 142 б.

<sup>2</sup> Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабаъи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. – Тошкент, 1952. 142 б. (бундан кейинги иқтибослар мазкур диссертациядан олинганда, ёлғиз диссертация саҳифаси кўрсатилади. С.Ў.)

Olim o‘zbek adabiyoti tarixini “Xamsa” va “Chor devon” kabi durdonalar bilan yangi g‘oyaviy va badiiy yuksaklikka ko‘targan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy ijodi atrofli ravishda keng o‘rganish va tekshirishga loyiq bo‘lib, shoir asarlarining avtograflari haligacha topilmaganligi ilmiy tekshirish ishini olib borishni qiyinlashtirishi mumkinligiga qaramasdan, Navoiy asarlarining ishonchli nusxalari asosida aniqlangan ilmiy-tanqidiy matnlar tuzish vazifasining dolzarbligiga diqqatni tortadi. Chunki, olimning fikricha, avtograflari topilmagan asarlar yuzasidan ilmiy-tanqidiy matnsiz, tasodifiy nusxalar asosida ilmiy tekshirish ishini olib borish ko‘pincha kutilgan natijani bermaslik bilan bir qatorda asarning asliga qanchalik mosligi yoki naqadar yaqinligi aniqlanmagan tasodifiy nusxa bilan ish ko‘rish tekshiruvchini xato yo‘llarga tushirib yuborishi, noto‘g‘ri xulosalarga olib borishi mumkin, deya matnshunos mutaxassislar uchun nazariy jihatdan puxta yo‘nalish beradi.

Ilmiy-tanqidiy matn tuzish zarurati haqida olim nuqtadonlik bilan urg‘u bergan jihatlar talaygina. Birinchidan, Navoiy bilan XX asrni besh yuz yillik masofa ajratib turgani; ikkinchidan, shoir asarlari tegishli asrlarda turli yerlarda har xil saviyadagi va farqli ijtimoiy guruhlarga mansub kishilar tomonidan ko‘chirilgani; uchinchidan, mana shu ko‘chirishlarda ba‘zan kotiblarning beparvoligi yoki chalasavodligi natijasida matnda xilma-xil xato va nuqsonlar yuz berib kelgani; to‘rtinchidan, ko‘pincha, bilaturib, atayin kiritilgan o‘zgartirishlar mavjudligini sanab o‘tadi.

Bizningcha ham, Shamsiyev domla tomonidan ko‘rsatilgan asosan to‘g‘ri bo‘lib, biroq uning *“...bu xildagi o‘zgartirishlar Navoiy dunyoqarashidagi ilg‘or g‘oyalarning ta’sirini kuchsizlantirish maqsadida kiritilgan. Buning sababini Navoiy ijodining sotsial xarakteridan izlash kerak”* (Dis-ya, 12-bet) degan fikrlari biroz e’tiroz uyg‘otadi. Bu mulohazalar so‘z yuritilayotgan davrlar uchun, avvalo, yetarli asosga ega emas. Muallifga ko‘ra, Alisher Navoiyning “Xamsa” va boshqa asarlarida zolim podshohlar, riyokor shayxlar, reaksiyon guruh vakillarini qattiq qoralashi va mehnat ahlini ulug‘lashi uzoq asrlik an‘analarni “yorib chiqish” bo‘lib, Eron shohi Xusravning salbiy obraz qilib berilishi, mehnatda kamolot kasb



etgan Farhodni ijobiy qahramon sifatida ko'tarishi, ayollarning insoniy huquqlarini e'tirof etishi shoir yashagan davrdayoq ig'vo-fasodlarga, hujum va bo'htonlarga sabab bo'lish bir qatorda buning ta'siri shoir asarlari qo'zlyozmalarining keyingi asrlardagi taqdiriga ham salbiy ta'sir qilgan: *“Navoiy feodal reaksiyasi sharoitida ijod qildi. Lekin reaksionerlar uning ijodini xalqchillik yo'lidan chetga burishga muvaffaq bo'la olmadilar. Navoiy asarlarida insonning ijodiy qudratiga va ilm-fanning roliga yuqori baho beriladi, insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari kuylanadi. Shuning uchun Navoiy asarlari 500 yil davomida turli davrlarda va turli kishilar tomonidan ko'chirilgan ekan, reaksion guruh vakillari bu asarlarning sotsial mazmunini kuchsizlantirish maqsadida ularga turlicha o'zgarishlar kiritganlar”* (dis-ya, 14-bet). Ammo dissertant “Sab'ai sayyor” dostonining o'nga yaqin kotiblar tomonidan ko'chirilgan nusxalarini solishtirib taqdim qilgan ilovasidagi o'zgarishlar uning fikrlarini to'la tasdiqlamaydi, ya'ni ko'rsatilgan farqli o'rinlar asosan, so'zlarning variantdoshlariga xos bo'lib, asarning yetakchi g'oyaviy-badiiy yetukligiga putur yetkazmagan.

Shu o'rinda yana bir mulohaza. Dissertatsiyada Navoiy asarlarining qo'lyozmalarida duch kelinadigan kamchiliklar deb sanalganlar shoir asarlarining 15 jildligini nashrga tayyorlash vaqtida jildlar yuzasidan qilingan asossiz o'zgartirishlar, tushirib qoldirishlarlar oldida hechdir. Zero, bu jarayonlarda bevosita ishtirok etgan muallif ham g'arazli maqsadlar ko'zlanib bajartirilgan bu ishlarga to'sqinlik qila olmagan haqiqat.

Shunday bo'lsa-da, muallif Navoiy asarlarining tekstlari turli davrlarda ko'chirilgan nusxalarining har birida turli sabab va maqsadlar bilan xilma-xil o'zgarishlarga uchrab kelgani, inqilobdan oldin litografiya yo'li bilan bosilib chiqqan asarlarning matnlari ham xato kamchiliklarga egaligi, ulug' shoirning keyingi davrlarda nashr etilgan asarlari ham turli nuqsonlardan xoli emasligini ta'kidlab, ilmiy-tanqidiy matn tuzish zaruratini kun tartibiga qo'ya bilgan. Olimning to'g'ri e'tirof etishicha, o'zbek adabiyoti klassiklarining asarlari ustida inqilobga qadar hech qanday tekstologik ishlar olib borilmagan, faqatgina

1941-yilda Hazrat Navoiy tavalludiga 500 yil to'lishi munosabati bilan davlat miqyosidagi qaror qabul qilingach, bu boradagi ishlar jadallashgan.

Porsoxon domla “Sab’ai sayyor” dostonining tanqidiy matnini hozirlashga kirishar ekan, o‘zigacha amalga oshirilgan ishlarni ko‘zdan kechirib, ularning tajribasi bilan tanishib chiqqan. Jumladan, muallifning o‘zi hamda Olim Usmon tomonidan tayyorlanib, prof. A.K.Borovkov tahriri ostida nashrga etilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asariga to‘xtaladi<sup>1</sup>. Ma’lum bo‘lishicha, 1940-yilgacha “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning birorta ham qo‘lyozma nusxasi topilmaganidan uchta bosma nusxa (Parij, 1841-y.; Istambul, 1897-y.; Qo‘qon, 1916-y.) asos qilib olingan, har uch nusxadagi farqlar sahifa ostida ko‘rsatilgan, asardan foydalanish yo‘lida anchagina qulaylik vujudga keltirilgan: asarning asosiy matnidan tashqari mazmuni ham yengillashtirib, bugungi til bilan aytganda, tabdil qilib berilgan, asar haqida salmoqli so‘zboshi bilan birga oxiriga lug‘at va izohlar ham qo‘shilgan. Ammo shuncha ishlarga qaramay, dissertant kuyunchalik bilan yozishicha, har bet oxirida qayd etib borilgan farqlarga munosabat bildirilmagani, ya’ni farqlardagi to‘g‘ri yoki noto‘g‘rilik aniq ko‘rsatilmagani, boz ustiga, matn lotin alifbosida berilib, qo‘lyozma shakli qo‘shilmaganligidan har bir so‘z qanday o‘qilganligini taqqoslab ko‘rish qiyinligini mazkur ilmiy-tanqidiy matnning asosiy kamchiligi o‘laroq ko‘rsatadi. Shu sababga ko‘ra so‘z yuritilayotgan nashrni mukammal akademik nashr hisoblab bo‘lmaydi, deb xulosa qiladi.

Bizningcha, olimning o‘zi tayyorlagan ishga shu tarzda tanqidiy ko‘z bilan qarashi, matnga o‘ta talabchanlik bilan yondashishi uning kelgusida amalga oshirgan ishlarining muvaffaqiyatini ta’minlagan.

Navbatdagi nashr A.N.Kononov tomonidan tayyorlanib, S.E.Malov tahriri ostida dunyo yuzini ko‘rgan “Mahbub ul-qulub” didaktik asarining tanqidiy matni.<sup>2</sup> Mazkur kitobni tayyorlovchining so‘zboshisiga tayanib dissertant xabar berishicha, ishda 8 ta qo‘lyozmaga tayanilgan, yana boshqa 6 ta qo‘lyozma va

---

<sup>1</sup> Əлишер Навоий. Мухакаматул-лугатайн. УзССР Гослитиздат. Тошкент, 1940.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Возлюбленный сердец. Сводный текст. Подготовил А.Н.Кононов. Москва-Ленинград: издательство Академии Наук СССР, 1948.

bosma nusxalardan ham foydalanilgan. Biroq bu 14 nusxaning yolg'iz 2 tasi qadimiy nusxa bo'lib, qolganlari 18, 19, hatto 20 asrga oid qo'lyozma va bosma nusxalar bo'lganiga e'tiroz bildiradi. Chunonchi, *“bu qadar ko'p nusxani asosga olish ishni murakkablashtirib, farqlar ko'rsatkichi benihoya ortib ketib, foydalanishda qiyinchilik tug'diradi”* (dis-ya, 18-b.), deb hisoblaydi. Porsoxon domlaning qanoaticha, modomiki, vazifa ishonchli tekst tayyorlab berishdan iborat ekan, bu holda, 2-3 yoki 3-4 ta to'g'riroq qo'lyozma bilan ish ko'rishning o'zi kifoya qiladi, deb hisoblaydi va buni amalda isbotlab, *“Sab'ai sayyor”* dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda uchta nusxaga asoslanib ish ko'radi va navoiyshunoslik faniga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan asosli, teran tadqiq etilgan, ishonchli matnini taqdim etadi. Xo'sh, unda o'rinli savol tug'iladi: o'nlab nusxalar ichidan eng ishonchlilari qanday saralanadi? Dissertant bunga o'zi javob beradi.

Dissertant o'rinli urg'u berganidek, *“Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matni deyarli hamma nuqsonlardan holi, har taraflama mukammal va asliyatga yaqinlashgan matnlar bo'lmog'i kerak”* (dis-ya, 91-bet).

Porso Shamsiyev domla nomzodlik ishini *“Sab'ai sayyor”* dostonining ilmiy-tanqidiy matniga bag'ishlar ekan, bu boradagi izlanishlarini davom ettiradi, ya'ni doktorlik dissertatsiyasini *“Xamsa”*ning navbatdagi dostoniga qaratadi. Ilmdagi ana shu izchillik unga katta muvaffaqiyatlari keltirgani uning qator mumtoz asarlarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzganligida ko'rinadi. Bu esa o'z navbatida faqat o'zbek mantshunosligi, manbashunosligiga katta hissa bo'libgina qolmay, mumtoz adabiyotshunoslik rivojiga kuchli turtki berdi. Zero, mumtoz adabiyoti, xususan, navoiyshunoslik yuzasidan qilingan keyingi ishlar P.Shamsiyev tayyorlagan matnlar asosida yuzaga kelganini bugun hech kim inkor etmaydi.

Domla amalga oshirgan tadqiqot bilan tanishishdan yana shunday bir asosli to'xtamga kelish mumkin. Inchunin, uning ilmiy-tanqidiy matn tuzish borasidagi ishlari Porsoxon Shamsiyev maktabi degulik mohiyat kasb etgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари хақида. – Тошкент, 1952. 142 б.
2. Əlişer Navaij. Muhakamatul-lugʻatayn. UzSSR Goslitizdat. Taşkent, 1940.
3. Алишер Навоий. Возлюбленный сердце. Сводный текст. Подготовил А.Н.Кононов. Москва-Ленинград: издательство Академии Наук СССР, 1948.

## ALISHER NAVOIY ASARLARINING 15 TOMLIK NASHRIDA PORSO SHAMSIYEVNING XIZMATLARI

*Zulayho RAHMONOVA,*

*OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti katta ilmiy xodimi,  
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori*

### Аннотация

Mazkur maqolada Porso Shamsiyev ilmiy faoliyatida alohida hodisa hisoblangan Alisher Navoiy asarlarining 15 tomligi nashr ishlari, shuningdek, matnshunoslik ilmida domlaning oʻrni yuzasidan fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit soʻz va iboralar:** faoliyat, ilmiy meros, nashr, matn, matnshunoslik, doston, adabiyotshunos.

### Аннотация

В данной статье рассматривается издание 15 томов произведений Алишера Навои, что является особым событием в научной деятельности Порсо Шамсиева, а также роль учителя в науке текстологии.

**Ключевые слова и фразы:** деятельность, научное наследие, публикация, текст, текстология, эпос, литературоведение.

## Annotation

This article discusses the publication of 15 volumes of Alisher Navoi's works, which are a special event in the scientific activity of Porso Shamsiyev, as well as the role of the teacher in the science of textology.

**Keywords and phrases:** activity, scientific heritage, publication, text, textual criticism, epic, literary criticism.

Atoqli olim Porso Shamsiyev faoliyatidagina emas, o'zbek matnshunosligi tarixida ham Navoiy asarlarining nashri alohida bir hodisa, tadqiq etilishi lozim mavzulardandir. Bu haqida "Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari" tadqiqotida Porso Shamsiyev: "O'zbekistonda ilmiy tekstologiya (matnshunoslik)ning rivojlanish tarixi o'zbek xalqining ulug' shoiri Alisher Navoiy asarlarini nashr etishga kirishish ishlari bilan bog'liq holda boshlanadi. Navoiy asarlarini bosmaga tayyorlash va nashr etish masalalarining jiddiy va qizg'in tus olishi esa, 1938-yildan, ya'ni ulug' shoir tug'ilganiga besh yuz yil to'lish kunini nishonlashga hozirlik ko'rishdan boshlanadi"<sup>1</sup>, – degan edi.

"... Navoiy asarlarini nashr etish ishi o'rtaga tashlanganda qiyin masala kabi tuyilar edi, ishni qay taxlidda, qay usulda boshlash, qanday qilib adabiy asarlarni ommaga yetkazish masalasi, adabiyotshunoslarimizni jiddiy o'ylovga solgan edi"<sup>2</sup>, – deya mutafakkir shoir asarlari nashri jarayonlari baholanadi. Ma'lum ma'noda, Navoiy asarlarini nashr etishning ilmiy-nazariy tamoyillari ustoz matnshunos Porso Shamsiyev tomonidan yaratildi, desak xato bo'lmaydi. Chunki mazkur mavzu evolyutsiyasida domlaning alohida o'rni bor. U nashrga tayyorlash barobarida Navoiy asarlari matnlarini o'rganish xususida ham katta tadqiqotlar yaratdi.

Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan ko'plab olimlarimizning sa'y-harakati natijasida shoir asarlarining 15 tomligi nashr etildi. Ushbu tomlarning barchasida Porso Shamsiyev tahrir hay'ati a'zosi,

---

<sup>1</sup> Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: 1969, –Б. 1.

<sup>2</sup> Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: 1969, –Б. 1.

navoiyshunos Suyima G'aniyeva tomonidan nashrga tayyorlangan "Majolis un-nafois", ya'ni 12 tomga mas'ul muharrir bo'lgan bo'lsa, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 13-, 14-, 15-tomlar – jami 9 tom, asosan, ustod matnshunos tomonidan nashrga tayyorlangan. "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nazm ul-javohir", "Arbain" kabi asarlar hamda "Xamsa" tarkibidagi barcha dostonlar shular jumlasidandir.

Porso Shamsiyevda amaliy bir tajriba Navoiyning "Tanlangan asarlar" seriyasidagi nashridan mavjud edi. Unda ham ko'pgina tomlar Porso Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlagan. Ushbu nashrda qo'lyozmalarni solishtirish, turli nusxalarni qiyosiy o'rganib, matnshunoslikdagi ilk katta mehnat qilingan hamda asarlarga izoh yozish, lug'at va ko'rsatkichlar berishning nazariy tamoyillari yaratilgan edi.

Albatta, adabiyot va adabiyotshunoslikning davr bilan hamnafasligi oddiy bir haqiqatdir. Tarix jamiyatni o'zgartirishga hissasini qo'shgan adabiyot namunalari bo'lganligiga guvohlik bersa-da, adabiyotning u yoki bu zaylda davr va muhitga tobeligi ko'proq. Ammo adabiyotshunoslikning erk va adolatni targ'ib qilgan adabiyotni ham zamona zayliga qaram ettirishi bir fojia va eng achinarlisidir. Shu ma'noda Navoiy asarlarining 15 tomligi nashri ham mana shunday ma'naviy qurbonliklar bilan bo'lganligi aniq. Bugun mazkur nashrdan tushirib qoldirilgan o'rinlar va ularning Navoiy ijodiyoti va shaxsiyatini belgilashdagi muhim ahamiyati haqida gapirish oson. Biroq mana shu kamchiliklar evaziga bo'lsa-da, millatning ma'naviy tayanchlaridan bo'lgan daho ijodkor asarlarining xalqqa sodda tarzda qaytarilishining o'ziyoq katta bir jasoratni talab qilgan. Nashrdagi kemptiklarning sababi ham xalqdan yashirin qolmagan. Ayniqsa, mana shu o'rinlarda zabardast matnshunosning zukkoligiga, uning Navoiyni ham shoir, ham mutasavvif sifatida anglaganiga tan berish kerak. Yanayam domlaning haqiqatni aytish uchun yo'l topa olishdagi mahoratu farosati matnshunoslikdagi alohida bir hodisa ekanligini ta'kidlash zarur. "Hayrat ul-abror" dostoni uchun yozilgan izohda Porso Shamsiyev shunday yozadi:

“O‘tmishda musulmonlar o‘rtasida islom aqidalariga ko‘ra, har bir ishni arabcha “Bismillo...” degan ibora bilan boshlanuvchi jumlaning to‘liq yoki qisqacha aytib boshlash, kitob, risola va boshqa yozuvlarni ham shu jumla bilan boshlash singishib ketgan edi. Shuningdek, Navoiydan ilgari “Xamsa” yozgan shoirlar ham birinchi dostonlarning birinchi misrai qilib mazkur jumlaning oladilar va “hamd” (maqtov)ning birinchi qismi sifatida bu jumlaning keng tahlil qiladilar. Ustozlari kabi Navoiy ham “Hayrat ul-abror” birinchi dostonning birinchi misraini “Bismillahir rohmahir rohiym” jumlasini bilan boshlaydi va bu bobda shu jumlaning keng izohlaydi. Shundan keyin yana o‘sha davrlardagi odatga ko‘ra, bir bob “hamd” (Xudoni maqtash), to‘rt bob munajat (Xudoga yulvorish) va besh bob na‘t (payg‘ambar madhiyasi) beriladi. Garchi bu doston boblarida shoirning ma‘lum darajada ba‘zi bir falsafiy, ijtimoiy fikrlari aks etgan-da, lekin bu boblar dostonga bevosita aloqador emas. Ommaviy nashrlarda bunday boblar ehtiyoj tushmas. Shunday mulohazalarga binoan bu dostonning va boshqa dostonlarning ham ushbu nashrida shunday boblari tushirib qoldirildi”<sup>1</sup>. Kattaroq bo‘lsa-da, iqtibosni aynan keltirdik. Chunki bunday izohlar har bir dostonda alohida berilgan. Shunchaki tushirib qoldirilgan boblar raqamlanmasdan, ularning nima haqida ekanligi atroflicha sharhlangan. Jumladan, “Farhod va Shirin” dostoni izohi ham tushirib qoldirilgan boblar to‘g‘risida boshlanadi: “Bular “hamd” (1-2 bob), “Munajat” (3 bob), “na‘t” (4 bob), “me‘roj” – payg‘ambarning ko‘kka chiqishi (5- bob), Sulton Husayn madhi (10 bob), shahzoda Badiuzzamon madhi (11bob)dan iborat bo‘lib, jami ettita bobdir”<sup>2</sup>. Bu izohlardan xabardor o‘quvchi tushirilgan boblarning nima haqida ekanligini darrov fahmlagan.

Alisher Navoiy asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va nashr etish uchun ko‘p izlanishlar olib borganligini olim o‘z asarlarida e‘tirof etgan. Porso Shamsiyev o‘zidan oldingi sharq va g‘arb matnshunoslarining faoliyatini, matnshunoslik tamoyillarini puxta o‘rgangan. Biroq ustod S.Ayniy tajribalarini e‘tirof etib: “... Bu yerda atoqli yozuvchi,

---

<sup>1</sup> Navoiy A. 15-томлик. Ҳайрат ул-аброр. 6-том. –Б. 244-245.

<sup>2</sup> Navoiy A. 15-томлик. Фарход ва Ширин. 7-том. –Б. 418.

marhum Sadridin Ayniyning “Xamsa” dostoni ustidagi qimmatli ilmiy ishini alohida qayd etish kerak. S.Ayniy “Xamsa” dostonlarini mohirlik bilan qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yo‘l bilan badiiy ifodasini berdi. Asarning ko‘p sahifalarini ilmiy izohlar bilan bezatdi. Shu bilan muxtasar “Xamsa”ni elga manzur qildi...”<sup>1</sup>, – deydi. Aslida asarlardagi izohlar asl matnni xalqqa etkazish, tushuntirish uchun bir vosita edi.

Hatto Porso Shamsiyev ba’zi o‘rinlarda Sadridin Ayniyning Navoiy “Xamsa”sini qisqartirib tayyorlangan nashridan iqtiboslar oladi: “Bu yerda ustoz Sadridin Ayniy bir voqeani keltiradi: Vosifiy hikoyatiga ko‘ra, Navoiy hayot vaqtida uning:

*Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur,  
mayxoravu bebok,  
Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur,  
sarmastu yoqam chok.*

Matla’li mustazodiga Xoja Abdullo Marvarid degan bastakor bir kuy yaratgan. U vaqtlarda Hirotda bu kuy chalinmagan uy yo‘q edi”.

Vosifiyning aytishiga qaraganda, bir bazmda hofizlar shu mustazodni aytayotganda majlis ahli yoqalarini yirtganlar, bu holni tasodifan Navoiyning o‘zi ham ko‘rgan. Navoiy bu yerda o‘sha kuy va o‘sha holatga ishora qiladi. (Alisher Navoiy. “Xamsa”. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi S.Ayniy. O‘zdavnashr. 1947. Bet 19.)”<sup>2</sup>.

Porso Shamsiyevning “Izohlar” ostida bergan ma’lumotlari so‘zlar ma’nosini anglatuvchi lug‘at, ba’zi so‘zlarning istilohiy ma’nosi, ba’zi baytlarning sharhidan iborat. “*Bu uch bayt ma’nosi*”, “*Bayt mazmuni*”, “*Bu she’rning mazmuni*”, “*Bu bayt xulosasi*” deya matnshunos har bir bayt ustida ijodiy yondashadi va o‘zining diniy, tasavvufiy, adabiy jihatdan yuksak bilim saviyasidan kelib chiqqan holda sharh va lug‘atlar beradi.

---

<sup>1</sup> Шамсиев П. Ўзбк матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986, – Б. 42.

<sup>2</sup> Навоий А. 15-томлик. Ҳайрат ул-аброр. 6-том. –Б. 254.



Izohlarda Porso Shamsiyev adabiyotshunosgina emas, yetuk tilshunos sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Porso Shamsiyevning “Xamsatul mutahayyirin” va holatlar nashri hamda uning izohlari ham tahsinga loyiq. Domla uchun matn so‘z va ma’no, zohir va botin uyg‘unligi. Matnning mazmun-mohiyatini teran anglashi har bir so‘z haqida jiddiy bosh qotirishiga olib kelgan. Turli qo‘lyozmalarni solishtirib, to‘g‘ri xulosaga kelishga majbur qilgan. Bu hol, ayniqsa, uning izohlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Holotlar va “Xamsatul mutahayyirin” so‘ngida keltirilgan izoh va she‘riy tarjimalar fikrimizning dalilidir. “Jomiyning murid-muxlislari, shogirdlari son-sanoqsiz edi. Lekin bular orasida Alisherchalik samimiy muxlis va yaqin shogird hamda bu samimiyat va yaqinlikka Navoiychalik umrining oxirigacha sodiq qolgan kishi topilmasa kerak”<sup>1</sup>, degan Porso Shamsiyev matnshunos sifatida bu asarlarni o‘ziga xos bir ruhi bilan xalqqa yetkazishga harakat qilgan.

Navoiyning so‘z tanlashdagi ham mahorati domlaning izohlarida to‘laqonli namoyon bo‘lgan. Masalan “Layli va Majnun” dostonidagi:

*Derlar seni dur, savob emas bu,*

*Sen javhari ruhu dur – quruq su,–*

baytidagi “*savob emas*” birikmasini – bir qarashda ajablanarli tuyulgan “*to‘g‘ri emas*” deya izohlaydi. Va o‘quvchi baytni takror o‘qiganda matnshunosning ilmiga tan beradi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Navoiy asarlari nashrlari keyinchalik ham bir necha bor amalga oshirildi. Ammo ta’kidlash joizki, ularning barchasida 15 tomlik nashr asos bo‘ldi. Chunki mana shu nashrda Navoiy asarlarini nashr etishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan hamda qo‘lyozmalar bilan ishlashdagi eng og‘ir mehnat qilingan edi. Qo‘lyozmalardagi ma’naviy xarakterdagi hamda orfografik farqlar, kotibning xatosi, qoldirilgan ayrim so‘zlar va qator baytlar ko‘rsatib berilgan edi. Millat ta’lim va tarbiyasida o‘ziga xos o‘ringa ega Alisher Navoiy asarlarini mana shu

---

<sup>1</sup> Шамсиев П. Ўзбк матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986, – Б. 232.

tarzda xalqqa yetkazgan matnshunos Porso Shamsiyevni xotirlashga burchlimiz. Va ustozning ruhlari shod bo‘lishini so‘rab qolamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: 1969.
2. Навоий А. 15-томлик. Ҳайрат ул-аброр. 6-том.
3. Навоий А. 15-томлик. Фарҳод ва Ширин. 7-том.
4. Шамсиев П. Ўзбк матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986.
5. Шамсиев П. Ўзбк матншунослигига оид тадқиқотлар. – Тошкент: 1986.

### **HAZRAT NAVOIY “XAMSA”SI PORSO SHAMSIYEV TADQIQIDA**

*Fayzullo YAXYOYEV,*

*O‘zMU tayanch doktoranti, “Xalq ta’limi a’lochisi”*

*+998944222323*

### **Annotatsiya**

*Hazrat Alisher Navoiy asarlarining gulojisi hisoblanmish “Xamsa” dostoni tarkibidagi dostonlar o‘zining mazmun-mohiyati, badiiyati va didaktik xarakteri bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham bu asarni o‘rganish, tadqiq etish, kelajak avlodni bu jjavohirotdan bahramand qilish har bir navoiyshunos olimning, muhim vazifasidir. Ushbu maqolada navoiyshunos olim Porsoxon Shamsiyevning Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlari haqida mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Xamsa”, matn tadqiqi, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy”;*

### **Annotation**

*The epic "Khamasa", which is the flowerbed of the works of Hazrat Alisher Navoi, is distinguished by its content, art and didactic nature. Therefore, the study and research of this work, the enjoyment of this jewel by the next*

*generation is an important task of every Navoi scholar. This article comments on the research of Navoi scholar Porsakhon Shamsiyev on the epics of Alisher Navoi in "Khamsa".*

**Keywords:** *“Khamsa”, text research, “Farhod and Shirin”, “Layli and Majnun”, “Saddi Iskandariy”;*

#### **Аннотация**

*Эпос «Хамса», являющийся клумбой творчества Хазрата Алишера Навои, отличается своим содержанием, художественным и дидактическим характером. Поэтому изучение и исследование этого произведения, доведение этой драгоценности до следующего поколения является важной задачей каждого навоийского ученого. В данной статье комментируется исследование навоийского ученого Порсахона Шамсиева об эпосе Алишера Навои в «Хамсе».*

**Ключевые слова:** *«Хамса», исследование текста, «Фарход и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Садди Искандарий»;*

Hazrat Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda ham xamsanavislik an’anasi mavjud bo‘lgan. Bu haqidagi asosiy ma’lumotlarni, biz, buyuk mutafakkirning o‘z asarlaridan olamiz. Hazrat Alisher Navoiy mahoratli va yetuk lirik shoir bo‘lishi bilan bir qatorda, buyuk epik – dostonnavis ijodkordir. Lirik poeziyada katta muvaffaqiyatlarga erishgan shoir, yuksak iqtidori va ko‘p yillik tajribalari natijasida umrboqiy epik asarlar yaratdi. Uning “Xamsa”si nafaqat turkiy til dunyosida, balki jahon adabiyotida ham o‘lmas adabiy obida bo‘ldi. Navoiy o‘z asari bilan Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan xamsachilik an’analarida tub burilish yasay oldi.

Xalqimiz ma’naviyatini ulug‘ mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ijodiyoti, ayniqsa, uning “Xamsa” – qomusiy asarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek adabiyotshunosligida Navoiy “Xamsa”sini tadqiq etuvchi olimlar, izlanuvchi tadqiqotchilar xamsashunoslik maktabini vujudga keltirdi. Bu jarayon XX asrda yanada qizg‘in kechdi. 1939-yilda nashr etilgan Olim Sharafuddinovning

“Alisher Navoiy” nomli ilmiy-ommabop asarida “Xamsa” asariga alohida sahifalar bag‘ishlangan. Olim Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”lar, shoir ijodi: lirik, epik asarlariga to‘xtalib o‘tgan. Xususan, Navoiy “Xamsa”si haqida so‘z yuritilib, mutafakkirdan avval yaratilgan xamsalar va ularning bu sohadagi asarlaridan Navoiy “Xamsa”sining farqli jihatlari tahlil qilingan. Shunday bo‘lsa-da, bu risolada Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlar to‘liq sharhlanmaydi.

1940-yilda nashr etilgan “Родоначальник узбекской литературы”<sup>1</sup> to‘plamida E.E.Bertelsning “Layli va Majnun”, Hamid Olimjonning “Farhod va Shirin” dostonlariga bag‘ishlab yozilgan maqolalarini o‘z ichiga olgan edi. Shu yillarda Sadridin Ayniy “Xamsa”<sup>2</sup>ni nashrga tayyorladi va nashr ettirdi. Bu orqali o‘zbek kitobxonlari Navoiy asarlaridan bahramand bo‘ldi. XX asrning 50-60-yillarda Navoiy asarlarining matnini yaratish va asarlarini ommalashtirish ishlari jadallik bilan kechdi. Adabiyotshunos Porso Shamsiyev boshchiligida Navoiy “Xamsa”<sup>3</sup> si nashr etildi. Bu sohaning rivojlanishida, o‘zbek kitobxonlari Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlar bilan tanishishida zahmatkash olim Porsoxon Shamsiyevning xizmati betakrordir. Shuningdek, adabiyotshunos olim bu tadqiqotlarini davom ettirib “Navoiy asarlari matnlarini o‘rganishning ba’zi masalalari” nomli filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi yaratdi. Ushbu ish bu sohada olib borilgan tadqiqotlarning samaralisidir. Mazkur dissertatsiya Navoiy asarlari matnlarini o‘rganish tarixi va rivojlanishi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va erishilgan yutuqlar xususida bo‘lib, navoiyshunoslik sohasidagi muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dastlabki bobi “Navoiy asarlarining ommaviy nashrlari va tekstologiyasi masalasi” deb nomlanib, olim unda Navoiy asarlarining ishonchli nusxasini yaratish, nashr qilish va o‘z davrigacha bo‘lgan tajribalar haqida so‘z yuritadi. Ushbu bobda Navoiy asarlarining bir nechta nashrlari haqida ma’lumot berilgan. Xususan, “Mahbub ul-qulub” 1939-yil lotin alifbosida chop etilgan

---

<sup>1</sup> Е.Э.Бертельс. Родоначальник узбекской литературы. – Тошкент, 1941, -Б. 30-31.

<sup>2</sup> Навоий А. Хамса. – Тошкент, 1941.

<sup>3</sup> Навоий А. Хамса. – Тошкент: ЎзССР Фан нашриёти, 1960.

bo‘lib, matn tayyorlash va lug‘at tuzish ishlarini Hodi Zaripov rahbarligida Yunus Latipov amalga oshirgan. Tadqiqot ishida bu nashrlarning yutuq taraflari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham to‘xtakib o‘tadi. Bu nashrning ramchiligi sifatida foydalanilgan qo‘lyozmalar soni, ularning sifati, farqlari haqida asar mazmun mundariyasi haqidagi so‘zboshida ma’lumot berilmaganini ko‘rsatadi.

“Farhod va Shirin” dostoni 1940-yil G‘ofur G‘ulom tomonidan tayyorlanib, lotin alifbosida chop qilingan. Shoir asar matnini tiklashda Shomurod kotib va Abdumannof qori bosma nusxalari bilan birgalikda uchta qo‘lyozmadan ham foydalangani, ularni solishtirganini yozib qoldirgan. Mazkur ish matnshunoslik komissiyasi tomonidan ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, anchagina puxta ekaniga qaramay, ba’zi kamchiliklardan ham holi emas. Navbatdagi doston “Layli va Majnun”ni 1941-yil shoir Amin Umariy va Sharif Husaynzoda, “Saddi Iskandariy”ni 1941-yil Yunus Latif va Inoyat Maxsumov Shomurod kotib tosh bosma nusxasidan foydalanib nashr qilgan. Biroq boshqa qo‘lyozmalar ko‘rilgani yo ko‘rilmagani haqida ma’lumot berilmagan.

Sadriddin Ayniy ham “Xamsa”ning qisqartirilgan matnini tayyorlab chop qilgan. Dostonlardagi ko‘plab baytlar tushirib qoldirilgan, voqeabandlikka – syujetga zarar yetmasligi uchun nasriy yo‘lda qisqacha bayon berilgan, yuksak san’at bilan yozilgan, ammo ko‘zga tashlanmaydigan, qiyin bo‘lgan hamda Navoiy shaxsiy hayoti va zamondoshlari bilan bog‘liq o‘rinlar izohlangan. Tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati tuzilgan, tarixiy nomlar uchun tarjimayi hol yozilgan. Sadriddin ayniy bir necha qo‘lyozmalardan qiyosiy foydalangan bo‘lsa-da, biroq ularning soni va sifatini aniq ko‘rsatmagan. Bundan tashqari, “Xazoyin ul-maoniy”dan saralab olingan she’rlar asosida 1940-yilda Uyg‘un va Sobir Abdulla “Chor devon” nomli to‘plam tayyorlab chop qilgan.

Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan o‘tkaziladigan anjuman Ikkinchi jahon urushi sababli qoldirilgan. Urush tugaganidan so‘ng uni o‘tkazish harakatlari boshlangan. Shu munosabat bilan Navoiyning barcha asarlarini xalqqa yetkazish uchun Navoiy asarlari seriyasi nashrga tayyorlangan. Bu to‘rt jilddan iborat bo‘lib, dastlabki jildda she’rlar, ikkinchi jildda “Xamsa”,

uchinchi jildda “Majolis un-nafois” va “Muhokamat ul-lug‘atayn”, to‘rtinchi jildda nasriy asarlar o‘rin olgan. Tadqiqotda mazkur seriyadagi har bir kitob haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Porsoxon Shamsiyev 1958-1960-yillarda Alisher Navoiy “Xamsa”sining mukammal matnini bir kitob holida shakllantirib, chop qilgan. Bunda muallif uch nusxadan foydalanganini aytadi. Ular Navoiyning shaxsiy kotibi Abduljamil kotib nusxasi, xattotlar qiblasi nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiy nusxasi hamda XVI asrda noma’lum kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa. Olim har bir nusxaga tanqidiy qaragan, o‘zaro solishtirish asnosida farqlarini aniqlagan, yetishmayotgan baytlar qiyos yo‘li bilan to‘ldirilgan va Navoiy “Xamsa”sining baytlari sanog‘i quyidagicha aniqlangan:

1. “Hayrat ul-abror” – 3988 bayt
2. “Farhod va Shirin” – 5782
3. “Layli va Majnun” – 3622
4. “Sab‘ai sayyor” – 5008
5. “Saddi Iskandariy” – 7214

Jami – 25 614 baytdan iborat. Bundan tashqari 1959-1960-yil davomida professor Hamid Sulaymonov to‘rt kitob shaklida “Xazoyin ul-maoniy”ni to‘liq chop qilgani, uning bir nechta qadimiy nusxalaridan foydalangani, nashr davomida bir qancha jiddiy texnik va matniy xatolari borligiga qaramay, undan manba sifatida foydalanish mumkinligi aytilgan.

Porsoxon Shamsiyev Navoiy asarlarining nashrlari haqida ma’lumot berishda davom etib, 1948-1949-yillarda shoir asarlari atigi yetti jildda noto‘liq shaklda chop qilingan bo‘lsa, 1963-1968-yillarda nashrdan qolib ketgan boshqa asarlari birgalikda 15 jildga jamlanib, kitobxonlar ixtiyoriga havola qilingani, majmuadan Alisher Navoiyning 25 nomdagi asari o‘rin olgan. Ulardan 11 tasi o‘sha davrda zamonaviy alifboda ilk bora nashr etilgani haqida ma’lumot beradi. “Devoni Foniyy”, “Lison ut-tayr”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki

Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat” ana shular jumlasidandir. Shuningdek, o‘zbek matnshunosligi mevasi hisoblangan “Boburnoma” va boshqa mumtoz shoirlarimiz asarlarining xrestomatiya shaklidagi nashrlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish tajribalari” deb atalgan bo‘lib, unda shoir asarlarining tanqidiy matnini tayyorlash borasidagi tajribalar haqida fikr yuritilgan. Mazkur masalaga ilmiy xolislik asosida yondashilgan. Olim bir qancha ishlar qatorida Suyima G‘aniyeva nashr qildirgan “Majolis un-nafoyis”ning ilmiy-tanqidiy matni, o‘sha davrda navoiyshunoslikka ilk qadam qo‘yayotgan L.Xalilov, Y.Is‘hoqov, M.Rahmatullayeva nomi va ishlarini tilga olgan.

“Navoiy “Xamsa”si dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va uning prinsplari” deb nomlangan uchinchi bobda dastavval Navoiy shaxsiyatining noyoblighi, daho sifatidagi hislatlari, “Xamsa” dostonlari tilga olinib, ularning tanqidiy matnini tayyorlash jarayoni haqida so‘z yuritiladi. P.Shamsiyev A.Navoiy o‘zi yozgan “Xamsa” dostonlarini yaxlit asar sifatida hamisha bir muqova ostida bo‘lishini istaganini, bu an’anaga shoir hayotlik chog‘ida ham rioya qilganini, shu bois barcha qo‘lyozma va toshbosma nusxalarda “Xamsa” yaxlit kitob shaklida uchrashini ta’kidlaydi. “Xamsa”ning tanqidiy matni ustida boshlangan ish, uning borish jarayoni to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritgach, o‘zbek matnshunosligida uchrayotgan nuqson va kamchiliklarga e’tibor qaratadi. Ishda “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matni amalga oshgani, “Farhod va Shirin” dostoni ilmiy tanqidiy matni bilan aloqador jarayonlar, ularda mo‘tabar va qadimiy qo‘lyozmalar bilan birga yordamchi nusxalarga ham murojaat qilingani tahlil qilingan.

“Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni ham tayyor bo‘lgani, ammo poligrafik muammolar sababli uni chop etish mashaqqatli kechgani, “Layli va Majnun” dostonining ham ilmiy-tanqidiy matni tuzilgach, “Xamsa”ni 1959-1960-yillardagi kabi qayta chop etish mumkinligi, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda asarning eng qadimiy haqiqatga muvofiq bo‘lishi ta’kidlangan.

Ilmiy ishda Navoiy “Xamsa”sining qadimiy qo‘lyozmasi Abduljamil kotib va Sulton Ali tarjimayi holiga doir ma’lumotlar ham berilgan. Qo‘lyozma matnlarni qiyoslash jarayonida ulardagi farqlarni belgilash uchun qo‘llanilgan shartli belgilar, qo‘lyozmalarning shartli nomlanishlari bilan bog‘liq muhim ma’lumotlar taqdim etilgan. Mazkur doktorlik dissertatsiyasida “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari ilova sifatida berilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.Э.Бертельс. Родоначальник узбекской литературы. – Тошкент, 1941, -Б. 30-31.
2. А.Навой. Хамса. – Тошкент, 1941.
3. А.Навой. Хамса. – Тошкент: ЎзСССР Фан нашриёти, 1960.
4. П.Шамсиев. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. Филология фанлари док дисс. –Тошкент, 1969.

## **PORSO SHAMSIYEVNING ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLARI (“MAKORIM UL-AXLOQ”(XONDAMIR) HAMDA “ BOBURNOMA” (Z.M.BOBUR) ASARI MISOLIDA**

*Gulasal QOBILOVA,*

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

*Tel: +99891 249 93 92*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Porso Shamsiyevning ilmiy faoliyati yoritilib, olimning matnshunoslik faoliyatida tutgan o‘rni hamda tarjima sohasida “Makorim ul-axloq” va “Boburnoma” asarlariga oid tadqiqotlari yoritiladi.



**Kalit so'zlar:** Porso Shamsiyev, Xondamir, Bobur, tabdil, olim, tahrir, nashr, nusxa, matn, muallif, tadqiqot, qo'lyozma, toshbosma.

### **Аннотация**

В данной статье описывается научная деятельность Порсо Шамсиева, его роль в области текстологии, а также его исследования в области перевода произведений «Макорим ул-ахлак» и «Бобурнома».

**Ключевые слова:** Порсо Шамсиев, Хандамир, Бобур, конверсия, ученый, редактор, публикация, копия, текст, автор, исследование, рукопись, литография.

### **Annotation**

The annotation article covers the scientific activity of Por Shamsiyev, his role in the textual activity of the scientist and his research on the works of Makorim-ul-tergatish and Boburnoma.

**Keywords:** Porso Shamsiyev, Khandamir, Bobur, conversion. Scholar, editor, publication, copy, text, author, research, manuscript, lithography.

Porso Shamsiyev tarjima sohasida ham qalam tebratgan. U Navoiyning birinchi biografi Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarini fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilib, keng jamoatchilikka taqdim etdi. Bu tarjima bir necha marta nashr etilgan edi. Mehnatsevarlik Porso Shamsiyevga xos xususiyat edi. Yarim asr mobaynida ming bosma betdan ortiq asarlar bevosita P.Shamsiyevning ishtiroki, yohud tahriri ostida nashr etilishining o'ziyoq uning ulkan mehnatsevarligidan dalolat berib turibdi.

Ayniqsa, matnshunos olimning S.Mirzayev bilan birgalikda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"dek asarini arab alifbosidan tabdil qilgani va to'liq nashrini amalga oshirgani matnshunoslikdagi katta voqea bo'lgan edi. Bu kitoblar keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim manbaga aylandi. Olim nashr haqida so'z yurita turib, "Boburnoma"ning Bobur asarlari ichida eng muhim va eng yirigi ekani, O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron

xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid juda nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, qolaversa, o'sha davr o'zbek adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi deya ta'riflaydi.

Porso Shamsiyev Boburnomaning mavjud to'liq matni ilk bor (bundan oldin ham "Boburnoma"dan faqat parchalar chiqarilgan) 1857-yili turkolog N.I.Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilganini aytadi. Matnshunos bu asarni nashrga tayyorlashda va dunyoga chiqarishda Ilminskiyning katta jasorat ko'rsatganini alohida ta'kidlaydi.

"Boburnoma"ning keyingi nashri haqida olim yana bir ma'lumotni keltiradi: "Bu nashrdan keyin 1905-yili ingliz orientalistlaridan A.Beverij xonim "Boburnoma"ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasi faksimilesining (qo'lyozmaning ayni o'zini) nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq tekst bo'lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba'zi bir tushib qolgan joylar va ayrim nuqsonlari bordir"

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, P.Shamsiyev va S.Mirzayev "Boburnoma"ni ikki qismdan iborat to'liq matnini 1948-1949 yillari nashr ettirgan edi. Biroq mazkur nashrda bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan edi. Bu xususida olimning o'zi: "Lekin bu nashr, keyingi ishlash protsessida ma'lum bo'lishicha, juda ko'p nuqsonlarga ega ekan. Buning asosiy sababi, hammadan ilgari har ikkala nusxaga befarq yondashishdan, tanqidiy tekshirishning benihoyat passivligidan deb qarash kerak", – deydi.

Shunday qilib, "Boburnoma"ning bu teksti ana shu keyingi bosmaning qayta boshdan ishlab chiqilishi, ma'lum tuzatishlar kiritilishi natijasida yangidan nashr qilindi. Ilgarigi nashr kabi bunda ham yuqoridagi ikkala bosma nusxa asosga olindi va kitob oxiriga ilova qilingan ko'rsatkichlar ham qayta tuzildi.

Qolaversa, Porso Shamsiyev tarjima sohasida ham qalam tebratgan. U Navoiyning birinchi biografi Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarini fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilib, keng jamoatchilikka taqdim etdi. Bu tarjima bir necha marta nashr etilgan edi. Unda Porsoxon Shamsiyev Alisher Navoiyni

tabiatan mehr va marhamatda, karam va saxovatda, kamtarlikda tengi yo‘q inson edi. Bu borada “Makorim ul-axloq”da qator hikoyatlar keltiriladi. Masalan, uning urushda asir tushgan kishilarga marhamati, Hirot xalqini Xorazm viloyatiga ko‘chirishni qisqartirishga erishishi, safarda chodiriga in qurgan qushning tuxum ochib, bolalarini uchirma qilguniga qadar chodirni qimirlatmasligi, kiyimiga ilashgan chumolini uyasiga olib borib qo‘yishi, yuksak lavozimga erishganda ham “o‘zini tufroq bilan teng tutish»ga doir o‘g‘itlari, amirlik lavozimiga tayin etilganda muhr bosish marosimida eng quyiga - undan pastga hech kim muhr bosolmaydigan joyga muhr bosishi, bularning barchasi uning insoniyligi namunasi.

“Makorim ul-axloq”da buyuk alloma haqidagi latifa va mutoyibalar ham berilib, ularda Navoiyning naqadar zukko, hozirjavob va katta aql egasi, shu bilan birga, yuksak ma'naviyat sohibi ekanligi ko‘rinib turadi. Porso Shamsiyev Xondamirning “Makorim ul-axloq” (“Olijanob xulqlar”) asari buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning hayoti hamda adabiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati to‘g‘risidagi qimmatli manba hisoblanadi. “Makorim ul-axloq” asarining qo‘lingizdagi ilmiy-izohli to‘liq tarjimasini mustaqillik davrida asarning turli nusxalarini o‘zaro solishtirish asosida ilk bora amalga oshirildi. Tarjimaning tadqiqot qismida Xondamirning hayoti va ijodi, asarning qo‘lyozma nusxalari va uning nashri to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan. Xondamirning ushbu asari Alisher Navoiyning sermahsul adabiy va ilmiy faoliyati bilan birgalikda uning mamlakat siyosiy barqarorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’atning taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissi to‘g‘risida hikoya qiladi. Shuningdek, “Makorim ul-axloq” ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning go‘zal xulqlari va yuksak insoniy fazilatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan bezatilgan biografik asardir. Unda shoirning tug‘ilishidan vafotiga qadar bo‘lgan sermazmun hayoti go‘zal uslubda bayon etilgan.

Mehnatsevarlik Porso Shamsiyevga xos xususiyat edi. Yarim asr mobaynida ming bosma betdan ortiq asarlar bevosita P.Shamsiyevning ishtiroki,

yoxud tahriri ostida nashr etilishining o'ziyoq uning ulkan mehnatsevarligidan dalolat berib turibdi. Ayniqsa, matnshunos olimning S.Mirzayev bilan birgalikda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"dek asarini arab alifbosidan tabdil qilgani va to'liq nashrini amalga oshirgani matnshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu kabi kitoblari keyingi tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylandi.

Bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining noyob namunasi bo'lmish "Boburnoma" asari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda o'rganib, Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy tarix xususan o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini o'rganishga bo'lgan davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, "Boburnoma" asari nafaqat yurtimiz balki xorijda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Mazkur asarning Sale tomonidan qilingan tarjimasida Bobur va uning qo'shini asosini turk va afg'onlar tashkil etsada Yevropalik olimlar tomonidan yanglish holda mazkur davlatni "Buyuk mo'g'ullar imperiyasi" deb atash odat tusiga kirganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, mazkur asarda Andijon tavsifi haqida so'z borganda uning asosiy aholisi turkiylar ekanligi Bobur tomonidan e'tirof etiladi. Shu bilan birga, A.Navoiy Hirotda yashab ijod etgan bo'lsada, asarlari ham mazkur tildan uncha farq qilmaganligi qayd Mazkur asar turkiy xalqlar tarixini o'rganishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi zero mazkur asarda o'nga yaqin o'rinlarda turkiy xalqlar yashash hududlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud, shu bilan birga, agar asardagi etnik ma'lumotlar chuqur tahlil etilsa, mazkur asarda turkiy xalqlarga mansub qabila va urug' nomlari ham ko'p o'rinlarda uchraydi. Bobur o'lkaning geografiyasi va aholisi to'g'risida batafsil ma'lumotga ega ekanligi tufayli Farg'ona va Samarqand tavsifini juda aniqlik bilan bayon etadi. Shu bilan birga, Dashti Qipchoq hududidan Farg'ona vodiysiga kirib kelgan ko'chmanchi turkiy qabilalar o'troq bo'lib joylashganlar. Mazkur ma'lumotlar keyingi davr tarixchilari Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mahmud ibn Vali va Abulg'oziyxon tomonidan ham qayd etib o'tilishi mazkur asarning ilmiy qiymati yuqoriligini xulosa qilib

aytadilgan bo'lsak "Boburnoma" asari bevosita siyosiy ta'sir doiralari va alohida hukmron toifa uchun atalgan tarixiy asarlardan berilgan ma'lumotlarda ham mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Tarixchi tadqiqotchi sifatida shuni qayd qilmoqchiman, Boburning "Boburnoma" asari hozirgi davrda ham turli yo'nalishdagi tadqiqotchilar, olimlar tomonidan qayta-qayta davr talabi asosida keng o'rganilmoqda. Tojikiston Davlat mustaqilligi davrida "Boburnoma" asarining tojik xalqi o'rta asrlar davri tarixi ahamiyatli manbasi sifatida nashr etilishi o'lkamiz tarixini o'rganuvchi yosh tadqiqotchi tahlilchilari uchun juda ulkan jahon adabiyoti va tarixiy manbashunosligida memuar janrning mukammal namunasi hisoblangan "Boburnoma" tarixiy manba sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqdi. Shu bilan birgalikda, u ilm-fanning ko'plab sohalari haqida ma'lumot beruvchi asar hisoblanadi. Porso Shamsiyev tomonidan "Boburnoma" bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar salmog'i ham asarning qimmatini belgilaydi. "Boburnoma" voqealari tasvirida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotida ko'zga ko'ringan alohida shaxslarning mavqei birinchi darajaga ko'tariladi, xarakterlar yaratishdagi ranginlik, g'olib va mag'lub shaxs ruhiy holatini Bobur ijodiy merosi, jumladan, "Boburnoma"ni o'rganish, uni tadqiq etish, asarning badiiy xususiyatlari, muallifning o'ziga xos bayon uslubi kabi masalalarni maxsus ilmiy tadqiq etishda o'zbek olimlari: A.Fitrat, M.Shayxzoda, R.Vohidov, Y.Is'hoqov, I.Haqqulov, H.Boltaboyev, X.Sultonov, V.Rahmonov, Sh.Rustamxo'jayev, A.Ibrohimov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari kattadir. "Boburnoma" – Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron va Hindistonning XV asr so'nggi o'n yilligi va XVI asrning yaqin 30 yillik tarixini qamrab olgan yirik monumental tarixiy-memuar asar ekanligi fanda o'z isbotini topgan. Bobur ushbu memuar asarida tarixiy hodisalarni nafaqat kuzatuvchisi sifatida, balki bevosita ishtirokchisi sifatida tasvirlaydi. Bobur o'z davrining siyosiy hukmdori bo'lish bilan birga, nozik didli ijodkor ham edi. «Boburnoma»ning ko'p o'rinlarida bu jihat yorqin aks etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. P. Shamsiyev, S. Mirzayev. Boburnoma. – Toshkent: O'zFA, 1960.

2. P.Shamsiyev . “Makorim ul –axloq”.- Toshkent :G'.G'ulom, 1967.
3. G'iyosiddin Xondamir .”Makorim ul –axloq”: tarixiy asar- Yoshlar nashriyot uyi, 2018,232-bet

## **O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGI YUTUQLARI PORSO SHAMSIYEV TALQINIDA**

*O‘g‘iloy AXMADALIYEVA,*

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida beqiyos xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Porso Shamsiyevning Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab asarlari bayoni, nashri va ular ustida olib borgan boshqa ilmiy-amaliy izlanishlari borasidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** matnshunoslik, memuar, “Xamsatul-mutahayyirin”, ilmiy-tanqidiy matn, badiiy tarjima, mumtoz adabiyot

### **Аннотация**

В данной статье рассказывается о произведениях Алишера Навои, Абдурахмона Джамии, Захириддина Мухаммада Бабур и Боборахима Машраба выдающегося ученого в области узбекской литературы Порсо Шамсиева и других его научных и практических изысканиях.

**Ключевые слова:** текстология, мемуары, «Хамсатул-мутахайирин», научно-критический текст, бафи перевод, классическая литература.

### **Annotation**

This article illustrates the works of Alisher Navoi, Abdurahmon Jami, Zahiriddin Muhammad Babur and Boborahim Mashrab by Porso Shamsiyev, an outstanding scientist in Uzbek literature, and his other scientific and practical research.

**Keywords:** textual studies, memoir, "Khamsatul-mutahayyirin", scientific-critical text, bafi translation, classical literature

Mumtoz adabiyot butun turkiy badiiyat va tilshunoslikka asos bo'lib xizmat qilgan manbadir. Bu davr adabiyot xazinasini esa biz Bobur, Mashrab, Jomiy kabi shaxslar va, ayniqsa, mutafakkir Alisher Navoiysiz tasavvur etolmaymiz. Ammo ularning bebaho asarlarini hozirgi o'zbek tiliga muvofiqlashtirish masalasida jonbozlik ko'rsatgan matnshunos olimlarsiz biz bunday yetuk baiiy merosdan bahramand bo'la olmas edik. Shunday olimlar deganda biz Izzat Sulton, Hamidxon, Islomiy, Abduqodir Hayitmetov, Vohid Zohidovlar qatorida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan Porso Shamsiyevni tilga olmay ilojimiz yo'q. Olimning ilmiy biografiyasi tarkibini o'zi tomonidan yaratilgan darslik, ilmiy-ommabop nashrlar, xrestomatiyalar, ilmiy-tanqidiy matn va maqolalar tashkil etadi. Ayniqsa, o'zbek navoiyshunosligida Porso Shamsiyevning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. Olim Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub" va boshqa bir qancha asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan. Keyinchalik Porsho Shamsiyev tashabbusi bilan bu asarlar safi "Munshaot", "Vaqfiya", "Xamsatul-mutahayyirin", "Saddi Iskandariy", "Holoti Pahlavon Muhammad" kabilarning nashri bilan boyidi. Olim matnshunoslik borasida muallifligi topilmagan asarlar ilmiy-tekshirish ishlarini qiyinlashtiradi deb hisoblagan va har doim ishonchli manbalar asosida ishlashga ahamiyat bergan. Xususan, "Xamsa" ustida ish olib borganida uning 6 ta qadimiy nusxalarini qiyosiy tarzda o'rganib chiqadi hamda Navoiy hayotlik chog'ida Hirotda mashhur kotiblar Abduljamil va Sultonali tomonidan ko'chirilgan nusxasini asosiy manba sifatida tanlab oladi. Ikkita nusxadan eng ishonchlisi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti kitob fondida saqlanayotgan kotib Abduljamil tomonidan yozilgan nusxa ekanligini ta'kidlagan. Chunki bu nusxa asar yozib tugatilgan yiliyoq (hijriy 889, milodiy 1484) oqqa ko'chirilgan va ushbu nusxadagi doston hajmi shoir tomonidan asar so'nggida keltirib o'tilgan 10 ming misra hajmga to'liq mos keladi:

*Varaqu satrin aylabon ta'yin*

*Baytini beah ming ayladim taxmin.*

Shu ma'lumotga tayangan holda olim ushbu manbaning ishonchligi yuqoriligini aytadi. "Xamsa" yuzasidan olib borgan tekstologik ishlari natijasida 1970-yilda "Alisher Navoiy "Xamsa"sining ilmiy-tanqidiy matni va uni tayyorlash prinsiplari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning matnshunoslikdagi jonkuyarligi Alisher Navoiyni o'rganish borasidagi qator hamkorlikda olib borilgan izlanishlarida ham ko'rinadi. Bunga misol tariqasida S.Ibrohimov bilan birgalikda tuzilgan "O'zbek klassik adabiyoti lug'ati" (1953) hamda "Navoiy asarlarining lug'ati" (1972), "Boburnoma" asarining S.Mirzayev bilan arab alifbosidan tabdil qilinganligini olish mumkin. Porso Shamsiyevning o'zi hamkorlikdagi ishlar borasida hamisha bir baytni takrorlab yurardi:

Yak gule maqsud dar in bo'ston

Chiya nashud bemadadi do'ston.

*(Ma'nosi: Bu bo'stonda birorta maqsad gulini do'stlarning yordamisiz uzib bo'lmaydi)*

Ana shu tarzda matnshunoslik maydoniga kirib kelgan, Porsoxon domlaning shogirdlaridan biri navoiyshuns olimi Suyuma G'aniyeva ustozining ijod jarayonini shu tariqa eslaydi: "Domla o'zi juda yaxshi biladigan so'zlar izohini ham lug'atdan qarab olar edi. Lug'at ko'rish yaxshi odatga aylanishi kerak deb aytardi... Bir kuni "rind" so'zining izohi borasida o'zimdagi lug'atlar qoniqtirmadi shekilli, ustozga murojaat qildim. Ancha tushuntirgach, ustoz qo'lga lug'at olib varaqladi. U yerda "rind – shariat qoidalarini johillik yuzasidan emas, balki, ongli ravishda inkor qiluvchi ziyrak, hushyor, ozod fikrli odam", deb izohlangan ekan... Ustoz o'shanda chiroyli tabassum bilan hazilomuz: "E-ha o'zimiz ekan-da!" – degan edi". Bundan ko'rinib turadiki, olim yetuk asarlar ustida ijod qilganida kichik xatoga ham yo'l qo'ymaslik maqsadida chuqur yondashgan va o'zi izohini mukammal bilgan so'zlarini ham lug'atdan yana bir ko'rishga erinmagan. Bu ustozning o'z ishida mas'uliyatli, izlanuvchan va kamchiliksiz bo'lishga intilganligini anglatadi. Bu kabi misollar u kishining



shogirdlari xotirasida talaygina muhrlanib qolgan. Porso Shamsiyevning o‘zi esa shogirdlar, yoshlarga ilm va maorif ulashish borasidagi fikrini quyidagicha yozadi: “Studentlar armiyasini qurollantirish kerak, ta’lim-tarbiya metodlarini o‘rgatish kerak, mahallalarda, hatto, xonadonlarda mayda-mayda kurslar tashkil qilish kerak”. Buni qarangki, necha o‘n yillar avval aytilgan ushbu so‘zlarning isboti hozirgi ta’lim siyosatida ko‘rinmoqda. Olimning o‘zi ham ushbu gaplarining amaliy isboti sifatida “Adabiyotdan ish kitobi”, “Adabiyot darsligi”, “O‘zbek tili darsligi” kabi darslik va qo‘llanmalarni yaratdi. Hatto 30-yillarga qadar madrasa, maktab va maorif tizimida ishlashga qaror qilgan.

Porso Shamsiyev matnshunoslikda alohida maktab yaratgan desak ham bo‘ladi. Olim faqatgina Navoiy ijodi bilan cheklanib qolmadi. Uning mumtoz darg‘alardan yana biri Boburning “Boburnoma” memuar asarining tabdili matnshunoslikda yirik voqea bo‘lgan hamda ushbu asarning kirill yozuvida ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. Olimning o‘zi bu asarning to‘liq matni ilk bor 4 betlik ruscha so‘zboshi bilan 1857-yilda turkolog N.I.Ilminskiy tomonidan tipografiya usulida Qozon shahrida nashr etilganligini aytadi. Aslida esa yurtimizda Bobur ijodi ayrim istisnolardan tashqari XX asrning 40-yillarigacha o‘rganilmagan edi. Ushbu tabdillar bilan Porso Shamsiyev Bobur ijodining chuqur o‘rganilishiga debocha yasadi. Buning natijasida ayrim xrestomatiyalarga ham Bobur asarlari kirib keldi va uning lirikasi borasidagi tadqiqot ishlari boshlanib ketdi.

O‘zbek matnshunosligida yana bir katta qadam bu – ilk bor 1958-yilda Porso Shamsiyev va Abduqodir Hayitmetovlar tomonidan Boborahim Mashrabning “Tanlangan asarlar”i nashr etilishidir. Bu majmua 1960-yilda qayta to‘ldirilgan holda nashr etildi. Ushbu to‘plamga kiritilgan namunalar “Devoni Mashrab” kitobining Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 170, 5940, 171, 5694, 7133 inventardagi qo‘lyozmalardan litografiya nashrlaridan tanlab olingan ( 49 ta g‘azal, 3 ta mustazod, 6 ta muxammas va 1 ta musaddas). Bu izlanish ko‘p asarlari toshbosma, qo‘lyozma

holida saqlanib kelgan Mashrab ijodining yanada ko‘proq o‘quvchilar qo‘liga yetib borishi, xalq orasida yoyilishiga xizmat qildi.

Porsoxon Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan yana bir muhim ish bu – Alisher Navoiyning turli asarlarida fors shoiri Abdurahmon Jomiyga nisbatan bildirgan fikrlari yig‘indisi bo‘lmish “Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy” to‘plamining nashridir. Bu majmua alohida so‘zboshi va mulohazalar bilan boyitilgan. Olim ushbu majmua muqaddimasida shunday yozgan: “...Jomiy biror asar yozsa, birinchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorida isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko‘rsatib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyning o‘ziga madadkor, qiynalganida mushkullarini hal qiluvchi va ishlariga rag‘batlantiruvchi ulug‘ homiy va murabbiy deb bilar edi”. To‘plam tarkibida Navoiyning Jomiyga bag‘ishlab yozgan “Xamsatul-mutahayyirin” asari ham ilk bora bosilib chiqqan. Saroydagi qing‘irliklarni toza ruhiyatiga singdirolmagan Navoiyning o‘z mansabidan voz kechish fikridan faqatgina Jomiy tufayli voz kechganligi, Jomiyning Husayn Bayqaroni Qunduz viloyati yurishidan qaytarishga uringanligi haqidagi nodir ma’lumotlar ham shu kitobda keltiriladi.

Yuqorida keltirilgan to‘rt yirik mumtoz adabiyot vakillari sara badiiyatining keng mutolaachilar qatlamiga yetkazilishida Porso Shamsiyevning qariyb ellik yillik xizmatlari beqiyos. Bu borada biz olimning bu izlanishlarini “to‘rt yetuk ijodkor badiiy xazinasi tutashgan chorraha” deyishimiz mumkin. Matnshunoslik va badiiy tarjima sohasida ustozning ayni yuksak qalam tebratgan shaxslar asarlarini tanlashi, avvalo, mukammallikka intilish bo‘lsa, ikkinchidan, bu ish juda katta yirik xazinani bugungi avlodga yetkazishda katta rol o‘ynadi. Hatto hozir ham ko‘plab allomalar asarlari tabdilsiz qo‘lyozma holida muzeylarda saqlanmoqda. Bu esa biz yana shunday yetuk olimlarga hali ko‘p muhtojligimizni anglatadi.

Olim faqatgina mana shu tadqiqotlar bilan cheklanib qolgani yo‘q. Bulardan tashqari u “O‘zbek poeziyasi antalogiyasi” nashrida faol ishtirok etdi, G‘.G‘ulomning 4 jildlik “Tanlangan asarlar”ini nashrga tayyorlagan, Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Yarim

asrlik ilmiy izlanishlari mobaynida mingdan ortiq asar Porso Shamsiyev tahriri bilan nashr etilgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning barchasi matnshunoslik, xususan, navoiyshunoslikda Porso Shamsiyev amaliy tajribasi naqadar muhimligini anglatadi. Shuningdek, olimning izlanishlari samarasi xalqning durdona asarlardan xabardor bo'lishi va matnshunoslikning yuqori natijalarga erishishida dastak vazifasini o'tadi. Olim tomonidan qoldirilgan ilmiy manbalar hozirgi ilmiy-amaliy tadqiqotlarga ham asos bo'lib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Porso Shamsiyev" - [www.uz.m.wikipedia.org](http://www.uz.m.wikipedia.org)
2. "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" - [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
3. M. Hoshimxonov. "Mashrabi mo'tabar o'zim" - [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
4. G'.Shodmonov. "Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos" - [www.lbrary.ziyonet.uz](http://www.lbrary.ziyonet.uz)

## MUNDARIJA

### PORSO SHAMSIYEV HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

<b>Ibrohim Haqqul.</b> Matnshunoslik piri .....	3
<b>Hamidulla Boltaboyev.</b> Porso Shamsiyev va o‘zbek matnshunosligi muammolari.....	7
<b>Nurboy Jabborov.</b> Porso Shamsiyev - ilmiy-tanqidiy matn nazariyotchisi va amaliyotchisi.....	12
<b>G‘iyosiddin Shodmonov.</b> Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matnga oid nazariy qarashlari va tadqiq usullari .....	20
<b>Otabek Jo‘raboyev.</b> Porso Shamsiyevning matnshunoslik faoliyati va ikki qo‘lyozuvi xususida .....	32
<b>Qodirjon Ergashev.</b> “Boburnoma”ning P.Shamsiyev va S.Mirzayev tomonidan tayyorlangan nashri .....	38
<b>Sayfiddin Rafiddinov.</b> Porso Shamsiyevning “Navoiy asarlari lug‘ati” xususida.....	45
<b>Sirdaryoxon O‘tanova.</b> “Sab‘ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni xususida.....	54
<b>Zulayho Rahmonova.</b> Alisher Navoiy asarlarining 15 tomlik nashrida Porso Shamsiyevning xizmatlari.....	60
<b>Fayzullo Yaxyoyev.</b> Hazrat Navoiy “Xamsa”si Porso Shamsiyev tadqiqida.....	66
<b>Gulasal Qobilova.</b> Porso Shamsiyevning adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlari (“Makorim ul-axloq” (Xondamir) hamda “Boburnoma” (Z.M.Bobur) asari misolida.....	72
<b>O‘g‘iloy Axmadaliyeva.</b> O‘zbek matnshunosligi yutuqlari Porso Shamsiyev talqinida.....	78

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI BO‘LIMI**

**PORSO SHAMSIYEV**  
**tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan**

**respublika ilmiy anjumani materiallari**

**2022-yil 27-aprel**

Muharrir: M. Sayfullayev  
Badiiy muharrir: F. Zovirov  
Sahifalovchi: U. Saidov

Nashriyot litsenziyasi № 3988. 14.09.2020  
Bosishga ruxsat etildi 05.05.2022. Bichimi 60x84 1/16.  
«Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli  
bosma tabog‘i 33,6. Nashr bosma tabog‘i 30.1. Adadi 100.  
Buyurtma №18.

«ADAST POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil:  
Sirg‘ali tumani, 7G-38, 3-uy, 14-xonadon  
Tel.: 90 909 33 49.

## **QAYDLAR UCHUN**